

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**

**MUQIMIY NOMIDAGI
QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

qo'lyozma huquqida
UDK:

Sintaktik gap bo'laklariga xos ayrim xususiyatlar

5A 140101 – o'zbek tili

magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTASIYA

Ilmiy rahbar:
filologiya fanlari nomzodi, dosent
SH.T.AKRAMOV

Qo'qon 2014

MUNDARIJA

KIRISH	3
---------------------	---

I bob. SINTAKTIK BIRLIKLAR TAHLILI VA BO'LAKLAR STRUKTURASIGA OID MUAMMOLAR

1-§. Gapdagi sintaktik bo'laklarning tahlili masalasiga doir.....	6
2-§. Aniqlovchi gap bo'lagining yoyiq turlari haqida.....	10
3-§. Tuzilishiga ko'ra gap bo'laklarini turlarga ajratish.....	17
4-§. Gap qurilishida aniqlovchi va to'ldiruvchi.....	27

II bob. O'ZBEK TILI IXCHAM GAPLARIDA BO'LAKLANISH, ULARNING NUTQIY IFODASI VA GAP QURILISHIDAGI MAVQEI

1-§.[WRm] – ixcham gap qolipi va kengaytiruvchilar munosabati.....	31
2-§. O'zbek tilida determinant gap bo'lagi haqida.....	46
3-§. Sodda yig'iq gap bo'laklarining nutqiy voqelanishi.....	51
4-§. Gap bo'laklarining amaliy va noamaliy mavqei xususida.....	55

UMUMIY XULOSA	70
----------------------------	----

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	72
--	----

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Prezidentimiz: “Ilmu fan sohasidagi harakatlarimiz ham, ilmiy ishlarimiz va yutuqlarimiz ham dunyodagi eng ilg’or mezonlar bilan o’lchanishi lozim” degan edi¹. O’zbek tilshunosligida sintaktik birliklar muammosi yangi emas va bu birliklarni tadqiq etishni eski deb ham bo’lmaydi. Chunki ilmfan, texnika va texnologiyalar taraqqiyoti natijasida avvalgi o’rganilgan tadqiq etilgan masalalar qatoridan ayrimlari chiqariladi, ayrimlari kiritiladi yoki atalishi jihatidan yangilik kasb etadi. Dastlabki tadqiq ishlarida sintaktik birliklar qatorida so’z birikmasi va gap tushunilgan bo’lsa, keyingi davrda uning qatoridan matn ham o’rin oldi. Sodda gap sintaksisi va qo’shma gap sintaksisi sifatida alohida-alohida o’rganilib kelingan sintaktik birliklarning o’zaro keskin farqlanishi bo’lmagani bois nazariy tilshunoslik mualliflari tomonidan uni birlashtirgan holda “Gap sintaksisi” sifatida o’rganilishi maqsadga muvofiq deb topildi. Bundan tashqari sintaktik jarayonlar davomida yana bir qancha muammolar uchrashi tabiiy. Sababi ma’lumki, taraqqiyot davomida mazkur sohaning bir emas, bir qancha mutaxassislari ishtirok etadi hamda ular tomonidan o’ziga xos nazariy g’oyalar ilgari suriladi. Mazkur nazariy g’oya va fikrlar ko’pchilik tomonidan ma’qullangan taqdirda darslik, o’quv qo’llanmalarda aks etadi. Mazkur ishda ham xuddi shunga muvofiq keladigan ayrim sintaktik masalalar keltirilgan va ularning echimi borasida yuritilgan fikr-mulohazalar mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning o’rganilish darajasi. O’zbek tilshunosligidagina emas butun jahon tilshunosligida sintaksis bo’yicha qilingan ishlar juda ko’p. Ularning hammasini sanab o’tirishning o’zi sintaksis bo’yicha muammolarning ham ko’p ekanligini tasdiqlaydi. Ayniqsa o’zbek tilshunosligida sistem nazariy tomondan tadqiqi borasidagi ishlar bu sohadagi ishlarning asosiylari qatorida turadi. Bu bilan nazariy tadqiq ko’p muammolarni keltirib chiqarish omili sifatida baholanmasligi zarur, balki nazariy tadqiq asosida an’anaviy tilshunoslikda o’zining uzil-kesil echimini topmagan ayrim sintaktik hodisalardagi muammolarga barham berila boshlandi. SHu bilan birga gap bo’laklari masalasiga valentlik imkoniyatlari

¹ Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. 2-kitob. T. O’zbekiston. 1996. B. 80.

asosida yondashildi. Bunda jahon tilshunosliklaridagi kabi gapning eng kichik qurilish qoliplari [WPm] va uning kengayish imkoniyatlari tadqiqotchilar N.Mahmudov, M.Boshmonov, M.Abuzalova, R.Sayfullaeva, R.Abdusamatov, SH.Akramov kabilar tadqiqotlarida ham ko'zga tashlanadi. Bularning deyarli hammasi gapning asosiy markazi kesim va uning atov birlik hamda kesimlik ko'rsatkichlari asosidagi kengayish imkoniyatlarini funkcionallik va nofunkcionallik, amaliy va noamaliy mavqe, deteterminantlik asosida ta'rif va tasnif qilishga qaratiladi. Ular tomonidan boshlangan tadqiq ishini boshqa muammoli holatlar bilan bog'lash hamda masalani oydinlashtirish borasida keltirilgan fikrlar tadqiq ishining ilk qadami hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. O'zbek tilshunosligi sintaktik sathidagi uchrovchi ayrim munozarali muammolarni olib chiqish hamda ularning echimiga doir shaxsiy taklif va mulohazarni keltirishdan iborat. Buning uchun tadqiq ishi oldiga quyidagi vazifalar qo'yiladi:

- sintaksis sathi bo'yicha munozarali bo'lgan ilmiy ishlar va maqolalarni o'rganish hamda ularga nisbatan munosabatni bayon qilish;
- gap bo'laklari bo'yicha muammolarni aniqlash va ularning ko'pchilikka, aniqrog'i, tilshunosligimiz namoyondalari fikrlariga ma'qul jihatlar bo'yicha sharhlash;
- muammoli o'rinlarni boshqacha tahlili va talqin etilishiga doir mulohazalar bayon etish;
- sodda gap va gap qurilishiga doir tadqiqotlar mohiyatini ochish hamda ularga nisbatan munosabat bildirish;
- gap tarkibini sintaktik tahlilini so'z va gap kengaytiruvchilik mavqelari asosida baholanishini tushuntirish va hokazo.

Tadqiqotning ilmiy-metodologik asoslari. Prezidentimiz asarlari va nutqlarida ilgari surilgan ilm-fan taraqqiyoti bilan bog'liq qarashlarini to'g'ri anglagan xolda dialektik falsafaning tadqiq usullari, xususan, qiyoslash, taqqoslash, oppozisiya va transformasiya usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Tadqiq ishidan ko'zlangan maqsad yangi narsa yaratish emas, yaratilgan, ilgari surilgan g'oyaning hamma uchun ma'qul bo'lgan jihatlarini yanada mukammallashtirish va o'quvchiga tushunarlilik darajasini kuchaytirishdir. Bu borada gap bo'laklari, gap qurilishi, bo'laklarning o'zaro munosabati, gap qurilishida gap bo'laklarining mavqei masalalariga sistem –nazariy va valentlik nazariyasi asosida yondashishga harakat qilindi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Tadqiq ishidan talabalar va mutaxassis o'qituvchilar o'z bilim va malakalarini oshirish, darslar jarayonida sintaksis bo'yicha optimal bilimlar berish kabilarda foydalanishlari mumkin.

Dissertasiyaning tuzilishi: Ish kirish, 2 bob va ularning o'ziga xos paragraflari, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlaridan tuzilgan va jami 78 betni tashkil etadi.

1 §. Gapdagi sintaktik bo'laklarning tahlili masalasiga doir

An'anaga ko'ra, sintaktik tahlil deganda, gapni bo'laklarga ajratish (bosh va ikkinchi darajali bo'laklar) tushuniladi. Lekin, gap bo'laklarini o'rganishdagi bunday tahlil usuli elementlar sintaktik birliklar tahlilini qamrab ololmaydi. Zero, bosh va ikkinchi darajali bo'laklar vazifasidagi so'zlar sintaktik jihatdan bosh va ikkinchi darajali bo'laklar vazifasidagi so'zlar sintaktik jihatdan bo'linadigan hamda bo'linmaydigan konstruksiyalardan iboratdir. SHunday ekan gapni tahlil qilish metodi an'anaviy sintaktik tahlildan farqli o'laroq, ikki bosqichda olib borilishini taqozga etadi. Bunda gapdagi elementlar yoki sintaktik birliklar avval komponentlab tahlil qilinib, keyin bu komponentlar u yoki bu sintaktik o'rinda sintaksemlarga ajratiladi. Bu kabi tahlil tipi avval ham mavjud bo'lib, uni ko'pincha ravishdosh, sifatdosh oborotlar deb ajratilib kelingan. Nazariy grammatika(N.Mahmudov, A.Nurmonov) mualliflari esa bunday tipdagi sintaktik bo'laklarni ravishdosh, sifatdosh va harakat nomi o'ramlari atamasi bilan yuritishadi. Bunday tahlil dastlab A. M. Muxin tomonidan ishlab chiiilgan bo'lib, ko'pgina olimlar ishlarida keng qo'llanilgan.

Gapni komponent tahlil qilishdan asosiy maqsad: gap strukturasi kelgan sintaktik birliklar o'rtasidagi o'zaro aloqani aniqlash va ularni bir-biridan farqlashdir. Biroq an'anaviy nazariy grmmatikalarga nazar tashlasak, ayrim tilshunoslar mustaqil gaplarning o'zaro birikishini bog'lovchilar orqali bog'lanish, deb ta'kidlasa, ba'zilar ergash gaplarning bosh gap bilan bog'lanish usullari deb tushunadi. Tilshunoslarning ko'pchiligi "sintaktik aloqa" va "sintaktik munosabat" atamalaridan foydalanar ekan, "sintaktik aloqa" deganda, gapdagi sintaktik birliklarning bog'lovchilar yordamida bog'lanishini tushunsa, "sintaktik munosabat" deganda so'z tartibi, so'z shakllari, ko'makchi so'zlar, yuklamalar va ohang kabi vositalar asosidagi birikishni tushunadi.

O'zbek tilshunosligida ham sintaktik aloqalar masalasida bir qator echimni topmagan hodisalar uchraydi. Masalan, o'zbek tili grammatikasida sintaktik aloqaga, gapda so'zlar va so'z birikmalarning o'zaro bog'lanishni bildirish bilan

birga, nutqda gaplarning ma'lum usul va vositalar yordamida bir-birlari bilan bog'lanishini ham bildiradi, deb izoh beriladi.

Xuddi shu fikr muallifi fikriga qo'shilgan xolda sintaktik aloqa va sintaktik munosabat masalasini farqlash zarur deb hisoblaymiz hamda o'zbek tilining nazariy grammatikasida berilgan sintaktik aloqa va sintaktik munosabat masalasining N.Mahmudov va A.Nurmonovlar ta'kidlaganlaridek, koordinativ va subordinativ aloqa turlarini, ular tarkibidagi kopulyativ, introduktiv aloqa turlarini ham hozirgi o'zbek adabiy tili doirasida o'rganilishini tashkil etish vaqti allaqachon kelgan deb o'ylaymiz. Sintaktik munosabatlar deyilganda, gaplar orasidagi mantiqiy munosabatlar anglashiladi. Nazarimizda, sintaktik aloqa va sintaktik munosabatlar sinonim tarzda tushunilmasdan balki ular ma'lum darajada farqlanishi lozim. YA'ni sintaktik aloqa so'z birikmasi va gapdagi so'zlarning aniqrog'i, nutqdagi so'zlarning bir-biriga nisbatan, qanday grammatik ma'no va funksiyada qo'llanishini bildiradi. Masalan, *uyga bordim, senga oldim* misollarida sintaktik aloqa bir xil emas, ya'ni *uyga bordim* birikmasida holli munosabat bo'lsa, *senga oldim* birikmasida ob'ektli munosabat ifodalangan. Lekin bunday fikrlarning mavjudligi sintaktik aloqalar va sintaktik munosabatlarni aniqlashda tilshunoslik sathlarini bir-biridan farqlamaslikka sabab bo'ladi. Bu o'rinda sintaktik munosabatlar so'z birikmalarida, sintaktik aloqalar esa gap sathida olib qaralgani maqsadga muvofiqdir.

O'zbek tilshunosligining eng so'nggi grammatikalaridan birida sintaktik aloqalar tushunchasi shunday izohlanadi: "Komponentlar orasidagi sintaktik aloqa ikki xil: predikativ va predikativ bo'lmagan aloqa". Predikativ aloqa natijasida gap hosil bo'ladi, predikativ bo'lmagan aloqa natijasida esa so'z birikmasi hosil bo'ladi. Bu an'anaviy tilshunoslikda mavjud va sintaksisga oid mashg'ulotlar davomida amalda qo'llanib kelinmoqda.

Sintaktik munosabat tushunchasi so'z birikmasi doirasida kuzatilib, atributiv, ob'ektli va relyativ (holli) munosabatlarga ajratiladi hamda bunday tahlil asosan gap emas, balki so'z birikmasi tahlili jarayonida ham amal qiladi. Sintaktik aloqalar va sintaktik munosabatlarni bunday farqlash haqiqatga ancha yaqin,

deyish mumkin. Ammo ba'zi manbalarda uchraydigan boshqaruv, moslashuv, bitishuv kabilar tilning qaysi sathida o'rganilishi haqida ham ayrim munozarali fikrlar mavjud. Xususan, ayrim tilshunoslarning fikricha, sintaktik aloqalar ikki yirik turga bo'linadi: teng va tobe aloqa. Teng aloqa deganda, uyushiq bo'laklar o'rtasidagi aloqa tushunilsa, tobe aloqa deganda, sintaktik jihatdan biri ikkinchisiga bo'ysinuvchi aloqa tushuniladi va ular uch xil bo'ladi: boshqaruv, moslashuv va bitishuv.

M. Muxin sintaktik aloqalarni aniqlashda til qatlamlarini bir-biridan farqlab, boshqaruv va bitishuvni leksik aloqa, moslashuvni esa morfologik aloqa deb hisoblaydi. Bunda albatta, birikuvda ishtirok etayotgan leksemalarning ma'noviy birikuvchanlik xarakteri inobatga olingan. Darhaqiqat, gaplarni sintaktik jihatdan tahlil qilganimizda, boshqaruv, bitishuv va moslashuvlarning birortasidan foydalanmaymiz. Chunki gapda boshqaruvning mavjud bo'lishi gapdagi kesim o'rnida kelgan elementning o'timlilik yoki o'timsizligiga bog'liq. Ma'lumki, o'timli elementlar har doim o'ziga ob'ekt talab qiladi va kesim o'rnida kelgan element bilan boshqariladi. Bundan anglashiladiki, predikativ markaz(an'anaviy kesim) sifatida kelayotgan gap bo'lagi alohida olingan narsa emas, balki o'timli yoki o'timsiz ma'noda kelayotgan boshqaruvchi markazning bog'lashuv(atama SH.Raxmatullaevniki) imkoniyatidir. Faktik materiallarni tahlil qilganimizda, yadro predikativ, subordinativ, oppozitiv, yadro bo'lmagan predikativ, koordinativ kabi aloqalarni uchratish mumkin. SHu boisdan aytish kerakki, jumla tarkibida asosiy predikat bilan bir qatorda ikkinchi darajali predikasiya ham uchrashi mumkin. Ammo bu ikkinchi darajali predikasiya degani "kesim" degani ham emas. Balki u ega, hol, to'ldiruvchi bo'lishi ham mumkin. Ammo ularni birlashtiruvchi asosiy jihat ma'noviy bog'lanish imkoniyatidir. YUqorida aytib o'tilganidek, komponentlab tahlil qilish metodiga asoslangan holda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim: 1) gapning boshlang'ich tahlilida gapdagi elementlar o'rtasidagi sintaktik aloqalar aniqlanadi va ular funkcion modellar yordamida izohlanadi; 2) aniqlangan sintaktik aloqalar bazasida har bir elementning differensial sintaktik belgilari aniqlanib, ular komponent modellar

yordamida beriladi. Gapning bunday tahlili gap tashqi strukturasi tahlili deb tushuniladi va bu jarayon sintagmatik planda bajariladi.

YUqorida qayd qilganimizdek, gapning komponent tarkibini va sintaktik aloqalarni to'g'ri aniqlashda tahlilga olingan gap doirasidan chiqmaslikning o'zi etarli. Sintaksemalarni aniqlash ularni turli sistemali tillar bilan qiyoslash hamda boshqa gap elementlari bilan taqqoslashdan iboratdir. Eng muhimi, gap strukturasi komponentlarni ajratish va sintaksemalarni aniqlashda asosan, bir sintaktik aloqa bazasida ish olib boriladi. Gapdagi elementlar sintaktik birliklarni komponentlab va sintaksemalarga ajratib tahlil qilish orqali: 1) gap strukturasi sintaktik birliklarning mazmuniy va shakliy xususiyatlarini o'rganishga imkoniyat yaratiladi; 2) bu imkoniyat gapning sintaktik va sintaktik-semantik jihatdan tasniflashni asoslaydi; 3) sintaksemalarga ajratib tahlil qilish sintaktik elementlar birliklarining sistem munosabatlarini o'rganishga imkon beradi; 4) lisoniy tahlil metodi yordamida modellashtirish va eksperimentdan foydalanishga imkoniyat yaratiladi; 5) sintaksemalarning sistem munosabatlari, ularning variantlari, modellashtirish va eksperiment metodlari asosida ishlab chiqilgan natijalar kesimni qiyosiy-tipologik jihatdan o'rganishga keng yo'l ochib beradi-degan edi tilshunoslardan biri². SHuning uchun ta'kidlash joizki, gapdagi butunicha bir so'roqqa javob bo'lib ajralmas gap bo'lagi sifatida tahlil etilgan sintaktik birlik tarkibida o'z mazmun mohiyati, boshqacha aytganda valentlik imkoniyatidan kelib chiqib, birlashtiruvchi ikkinchi darajali predikasiya shakllanadi. Ana shu ikkinchi darajali predikasiya bilan an'anadagi hokim-tobelik munosabatiga tayangan holdagi tahlilni, ya'ni tahlilning ikkinchi bosqichini belgilaydi. Bu tahlil jarayonida gapning asosiy kesimi bilan bog'lanish imkoniyatiga ega bo'lgan kengaytiruvchi birliklar(leksemalar), ya'ni funksional gap bo'laklari hamda bevosita shu markaz bilan bog'lanib, asosiy markazga bog'lanish imkoniyatiga ega bo'lmagan so'z kengaytiruvchilari farqlanadi. Bu esa gap bo'laklari tarkibidagi sistemalarni bir-biri bilan bog'lanishi hisobiga kengayishini yana bir karra tasdiqlaydi.

² L.Raupova. O'zbek tilida nomustaqil kesim masalasi va (WpM-Wpm)qurilishli gaplar.NDA.T.1999.

Xullas, gapni bunday tahlil qilish, elementlar sintaktik birliklarning funksional vazifalarini to'liq talqin qilish uchun keng imkoniyatni yuzaga keltiradi.

2 §. Aniqlovchi gap bo'lagining yoyiq turlari haqida

O'zbek tilshunosligida an'anaviy gap bo'laklarining yoyiq ba'zan tarkibli, kengaygan kabi turlari uchraydi hamda tilshunoslar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Bunday yoyiq, tarkibli, kengaygan atamaları bilan yuritilishidan qat'i nazar ulrning asosiy mohiyati muayyan gap bo'lagi vazifasidagi bir necha so'zning bir so'roq ostida birlashishini bildiradi. Darvoqe, aniqlovchilarning kengaygan yoki yoyiq turlari ham bevosita yuqorida ta'kidlab o'tilgan sintaktik tahlil mavzusidagi masala bilan ma'lum tomonlari bilan bog'lanib ketadi. Jumladan, hozirgi o'zbek tilida yoyiq aniqlovchilarning bir necha turi bo'lib, shulardan biri **-gan** affiksi bilan yasalgan sifatdoshli oborot orqali ifodalangan aniqlovchilardir. **-gan** affiksi bilan yasalgan sifatdoshli oborot ayrim mutaxassislar tomonidan ergash gap deb talqin qilinsa, boshqalar bunga qarshi fikr aytadilar. Masala nihoyatda murakkab bo'lganligidan qo'shma gaplarga bag'ishlangan maxsus ishlarda ham yoyiq aniqlovchilar bilan ergash gaplarning o'zaro munosabatiga alohida e'tibor beriladi. Lekin, shunga qaramay, sifatdosh oborot bilan ifodalangan konstruksiyalar yoyiq aniqlovchimi yoki ergash gapmi, degan masalada mutaxassislar tomonidan yagona fikr hali-hanuz bildirilganicha yo'q.

Sifatdosh oboroti(o'rami) bilan ifodalangan konstruksiyalarni ergash gap deb, tan oluvchilar o'z qarashlarini isbotlashda asosan ikki holatdan kelib chiqadilar. Ba'zilar bunday konstruksiyalar rus tiliga tarjima qilinganda, ergash gapga teng kelishini hisobga olsalar, boshqalar bunday konstruksiyalarning tugal fikr ifodalashi va ularda o'z ega hamda kesimi borligi haqida gapiradilar. Bunday konstruksiyalarning rus tiliga qilingan tarjimasiga asoslanib, ularni ergash gaplar qatoriga kiritish to'g'ri emas, albatta. Masalaning eng murakkab tomoni bunday konstruksiyalarning gapga xos belgilarga ega yoki ega emasligini isbotlashdadir. Keyingi vaqtlarda bunday konstruksiyalarning ergash gap emasligini tan oluvchilar soni ko'payib bormoqda va ularning ishlarida bu nuqtai nazarni isbotlovchi asosli dalillar ham keltiriladi. Lekin bunday sifatdosh oborot bilan ifodalangan

konstruksiyalarni ergash gap deb qarab, shu qarashni asoslashga harakat qilinayotgan ishlar hozirgi kunlarda ham maydonga kelmoqda. SHu munosabat bilan bu masala bo'yicha ayrim mulohazalarni ta'kidlab o'tish joizdir.

Biz fikr yuritayotgan tipdagi konstruksiyalarni ergash gap emasligini e'tirof etuvchilar ularning gapga xos birorta ham belgiga ega emasligini ta'kidlaydilar, ergash gap deb qarovchilar esa ularning tugal fikr ifodalashi va o'zida ega va kesimi mavjud ekanligi haqida gapiradilar. Lekin birorta ham ishda shu fikrning ishonarli dalillar bilan isbotlangan ko'rinishi yo'q. Aksincha, isbot tarzida keltirilgan dalillar haqiqatga mos kelmaydigan, ergash gapni / umuman qo'shma gapni/ belgilovchi kriteriyalarga mutloqo mos kelmaydigan dalillar bo'lib qolmoqda. Masalan, N. K. Turniyozov fransuz va o'zbek tillaridagi aniqlovchi ergash gaplarni o'rganishga bag'ishlangan nomzodlik ishida **Opam o'qigan hikoya hammamizni qiziqtirdi** gapidagi **Opam o'qigan** konstruksiyasining ergash gap ekanligini quyidagicha isbotlaydi: "Opam hikoya o'qidi. Hikoya hammamizni qiziqtirdi". Misolning ko'rsatishicha, transformasiya yordamida ikkita mustaqil sodda gap SOU- SOU shaklida birikkan. Birikish jarayonida birinchi gap tarkibidagi **hikoya** so'zi ikkinchi bor takrorlanmasligi uchun tushirib qoldirilgan. CHunki ikkinchi gap tarkibida ham aynan shu so'zning o'zi ishtirok etyapti. Ammo bu so'z birinchi gap tarkibidan izziz yo'qolmaydi, u o'zining o'rniga sifatdosh formasi **-ganni** qoldirib ketadi. Sifatdosh formasi **-gan** esa o'z navbatida gapdagi fe'l sostaviga qo'shilib, uning shaklini o'zgartirib yuboradi. SHu bilan, **-gan** formasi butun bir gapning shaklini ham boshqacha holatga keltirib qo'yadi. YA'ni Opam hikoya o'qidi gapi Opam o'qigan formasiga kirib, to'liq ma'noga ega bo'lmagan, ikkinchi gapga tobe bo'lgan gapga aylanadi³.

Lekin bu o'rinda ikki mustaqil sodda gap tarkibida qo'llangan hikoya so'zining tushishi va fe'l formasining o'zgarishi natijasida ikki mustaqil sodda gapdan ergash gapli qo'shma gap kelib chiqqanligi aytilgani bilan hodisani isbotlovchi hech qanday dalilga ega bo'linmaydi. SHuningdek, biror

³ Turniyozov N.K.O'zbek tili derivasion sintaksisiga kirish. Samarqand.1990.

konstruksiyadan qanday mazmunlar ifodalanishiga qarab, shu mazmunlarni ifodalovchi gaplar tuzib, shu yo'l bilan bu konstruksiyalarning qo'shma gapligini isbotlash ham to'g'ri emas, albatta. Bunday qilinadigan bo'lsa, yoyiq bo'lakli sodda gaplarning deyarli hammasi qo'shma gapga aylanib ketishi mumkin /to'g'rirog'i, ularni sun'iy ravishda qo'shma gapga aylantiraverish mumkin/. Bu hol qo'shma gap orqali murakkab mazmun, sodda gap orqali esa sodda fikr ifodalanadi degan xulosaga olib keladi. Biroq, yoyiq bo'lakli sodda gaplar juda murakkab mazmunni ifodalashi mumkinki, buni isbotlab o'tirishga hojat yo'q.

-gan affiksi bilan yasalgan sifatdoshli konstruksiyalarni tugal fikr ifodalaydi va ular o'z ega, kesimiga ega deganlar bu konstruksiyalarni gapdan alohida olib qarash natijasida shunday fikrga keladilar: Otam keltirgan xabar hammamizni hayajonga soldi gapidagi *otam keltirgan* konstruksiyasi alohida olinsa, haqiqatan ham, u tugal mazmun ifodalaydi va uning o'z ega, kesimi bo'ladi. Lekin masalaga bunday yondashish to'g'ri bo'lmaydi. Chunki bunday qilinganda, *otam keltirgan* konstruksiyasi ergash gap emas, balki barcha xususiyatlari bilan mustaqil sodda gapga teng bo'ladi va bu holda ergash gapli qo'shma gap haqida gapirish mumkin bo'lmaydi.

Masalaning eng muhim va murakkab tomoni yuqoridagi kabi konstruksiyalarda mustaqil ega, kesimning bor va yo'qligini isbotlashdir. Bunda ergash gap bilan bosh gapning bog'lanishi va ergash gap kesimining shakllanishi masalasiga e'tibor berish, nazarimizda masalaning mohiyatini to'g'ri va oydinroq hal etishga yordam beradi.

Turkologik adabiyotlarda, jumladan, o'zbek tiliga oid adabiyotlarda, ergash gaplarning bosh gapga ma'lum vositalar yordamida bog'lanishi qayd etiladi. Haqiqatda esa ergash gapli qo'shma gaplarda ergash gapni bosh gapga bog'lovchi biror vositaning bo'lmasligi haqida gapirish mumkin emas. Tarkibida –gan affiksi bilan yasalgan sifatdoshli konstruksiya bo'lgan yuqoridagi gaplarda esa, ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vosita haqida gapirish mumkin bo'lmaydi.

Masalan, *Otam keltirgan xabar hammamizni hayajonga soldi* gapidagi *otam keltirgan* bilan *hammamizni hayajonga soldi* qismlarini bog'lovchi biror so'zning yoki bular o'rtasida ergash gapni bosh gapga bog'laydigan maxsus intonasiyaning yo'qligiga shubha bo'lmas kerak. Faqatgina **-gan** affiksi shu vazifani bajaradi degan mulohazagina bo'lishi mumkin /ba'zilar shunday deb hisoblashlari ham uchraydi/.

To'g'ri bu o'rinda **-gan** affiksining bog'lash funksiyasi bor. Lekin bu bog'lash ergash gapni bosh gapga bog'lash emas, balki fe'lni otga bog'lash (fe'lni otga bog'lovchi formani, ya'ni atributiv formani yasash) funksiyasidir. Bu sifatdosh hozirgi zamon yoki hozirgi-kelasi zamon formasida bo'lganida ham xuddi shunday bo'ladi: *Otam keltirgan xabar... otam keltirayotgan xabar...; otam keltiradigan xabar...* Demak, *Otam keltirgan xabar hammamizni hayajonga soldi* gapidagi *otam keltirgan* konstruksiyasi gap deb qaraladigan bo'lsa, shu konstruksiyadagi sifatdosh hozirgi zamon va hozirgi-kelasi zamon formasida qo'llangan holatni ham, ya'ni *otam keltirayotgan* va *otam keltiradigan* konstruksiyasini ham gap deb qarashga to'g'ri keladi. Lekin bularning gapga xos biror belgiga ham ega emasligiga shubha bo'lmas kerak. Ayniqsa, hozirgi zamon sifatdoshning /keltirayotgan formasidagi sifatdoshning/ hech vaqt kesim vazifasida kelmasligiga e'tibor berilsa, bu narsa yanada yorqinroq oydinlashishi seziladi. Umuman, o'zbek tili faktlarining ko'rsatishicha, **-gan** affiksining ergash gapni bosh gapga bog'lash xususiyati borligi haqida gapirish mumkin emas. Demak, *Otam keltirgan xabar hammamizni hayajonga soldi* gapidagi *Otam keltirgan* konstruksiyasini gap deb tan olish, shu bilan birga, **-gan** affiksli sifatdoshning kesim vazifasida kela olish xususiyati natijasidir. Lekin bu konstruksiya tarkibida bosh kelishikda qo'llangan so'zning ega emasligiga va sifatdoshning kesim emasligiga, umuman, bu konstruksiyaning ergash gap emasligiga qator dalillar keltirish mumkin.

Avvalo aytish kerakki, bunday sifatdoshli konstruksiyalardagi otning bosh kelishikda qo'llanganiga qarab, uni ega deb hukm chiqarish etarli asosga ega emas. Chunki konstruksiya tarkibidagi ot boshqa kelishiklarda qo'llanganda ham

konstruksiyalarning umumiy sintaktik funksiyasi o'zgarmaydi. Masalan, Otam keltirgan xabar hammamizni hayajonga soldi; Otamning keltirgan xabari hammamizni hayajonga soldi; Otamni ko'rgan odam biznikiga keldi; Otamga olgan kitob uning o'tmishi haqida edi; Otamda bo'lgan kitob uning o'tmishi haqida edi; Otamdan olgan kitob uning o'tmishi haqida edi. Bu misollardagi sifatdoshli konstruksiya tarkibida tushum, qaratqich, jo'nalish, o'rin va chiqish kelishiklarida qo'llangan "otlarni" to'ldiruvchi yoki hol deb mustaqil gap bo'lagi sifatida qaralmaydi. Binobarin, xuddi shu tipdagi konstruksiyada bosh kelishikda kelgan otni /yoki otlashgan so'zni/ ega deb hukm chiqarish ham mumkin emas. Bunday konstruksiyalarda bosh kelishikda qo'llangan so'z ega bo'lmaganidan, u bilan bog'langan sifatdosh ham hech qanday shaxs-son qo'shimchalarini qabul qilmaydi, ya'ni kesimga xos belgilarga ega bo'lmaydi. Kesimi sifatdoshdan bo'lgan ergash gaplarda esa, ergash gapning kesimi shaxs-son ko'rsatkichiga ega bo'ladi, ya'ni bularda shaxs-son tushunchasi ifodalanadi. SHuningdek, ergash gapning kesimini shaxs-son, zamon kabi ma'nolarni ifodalovchi boshqa formalar /sinonim formalar/ bilan almashtirish mumkin bo'ladi. Qiyoslang: Biz borganda guruh a'zolaridan ikkitasi mashina aylanadigan joyning egatlarini tekislayotgan ekan /P. Qodirov, Meros/; Biz borganimizda guruh a'zolaridan ikkitasi mashina aylanadigan joyning egatlarini tekislayotgan ekan; Biz borsak, guruh a'zolaridan ikkitasi mashina aylanadigan joyning egatlarini tekislayotgan ekan; Biz borar ekanmiz, guruh a'zolaridan ikkitasi mashina aylanadigan joyning egatlarini tekislashga kirishdi. Biz yuqorida fikr yuritayotgan tipdagi konstruksiyalarda bunday holat qat'iyon yuz bermaydi.

Demak, bunday konstruksiyalardagi otning bosh kelishikda qo'llanganiga ko'ra uni ega deb qaramasdan, bevosita konkret faktlardan kelib chiqib, bosh kelishikda qo'llangan otning hamma vaqt mustaqil ega bo'lavermasligini qayd etaverish to'g'ri bo'ladi. Bunday holat boshqa tipdagi konstruksiyalarda ham bor: tezligi yuqori mashina, qarashi chiroyli qiz kabi; Bu konstruksiyalar tarkibida keladigan sifatdosh shaklli so'zlar kantaminasiyaga uchragan va ularsiz ham mazmun tinglovchiga etib borarli darajada tushunarlidir. *Texnikani suyadigan mana bu*

yoshlar YOlqinga o'xshagan zehni o'tkir yoshlarni mexanizatorlikka o'qitishni talab qilyapti/P. Qodirov, Meros/.

Umuman, ergash gapli qo'shma gaplarda ergash gap bosh gapdagi o'zi izohlab keladigan bo'lakning o'zi bilan qo'llanganda ham bu konstruksiyani qo'sh gaplik xususiyati yo'qolmaydi. YOki shu bo'lakning o'zi bilan qo'llanganda, tugal fikr ifodalanmaydi, ya'ni sintaktik butunlik bo'lmaydi. Masalan: 1. Qop yana bir marta ariqa yumalab tushganda, uni qo'llarim bilan urib yig'lab yubordim /P. Qodirov, Meros/ 2. Vatanimiz so'nggi besh yillikda shunday yo'lni bosib o'tdiki, buni o'tish uchun boshqa mamlakatlar 5-10 marta ko'proq vaqt sarf qilar edi./Gazetadan/ Birinchi gapdagi payt ergash gapni bosh gap tarkibidagi o'zi izohlab kelayotgan bo'lak /kesim/ bilan birga olinganda ham uning qo'shma gaplik xususiyati yo'qolmaydi: *Qop yana bir marta ariqqa yumalab tushganda, yig'lab yubordim.* Ikkinchi gapda esa aniqlovchi ergash gap bosh gapdagi o'zi izohlab kelayotgan so'z bilan birgalikda olinganda tugal fikr anglatmaydi, sintaktik butunlik ham bo'la olmaydi.

Otam keltirgan xabar hammamizni hayajonga soldi kabi gaplardagi *otam keltirgan* tipidagi konstruksiya, birinchidan, o'zi bog'lanib kelgan so'z bilan birgalikda hech vaqt tugal fikr ifodalamaydi: *otam keltirgan xabar.* Demak, gap ham /hatto sodda gap ham/ bo'la olmaydi. Ikkinchidan, bu konstruksiya o'zi birikib kelgan so'z bilan birga hamma vaqt ma'lum sintaktik butunlik hosil qiladi. Lekin bu butunlik gap hukmidagi /gapga teng/ sintaktik butunlik emas, balki ma'lum murakkab tushunchani ifodalovchi sintaktik butunlik, aniqrog'i, so'z birikmasi bo'ladi. Bundan tashqari, biz fikr yuritayotgan konstruksiya sodda gap tarkibida, bosh gap tarkibida, ergash gap tarkibida, kirish gaplarda, hatto undalmalar tarkibida ham kelishi mumkin. Masalan, *mashina soyda, shoxlari pastga egilib o'sgan jiydazor tagidagi chashma bo'yida to'xtaganda (hayriyat to'g'onda to'xtamadi, bo'lmasa yuragi hayajonda titragan Sayyora, ehtimol, Mohira xola bilan uchrashib qolarmidi) o'pkasi to'lib, ko'ziga beixtiyor yosh oldi* /O. YOqubov, Davr tabassumi/.

Ayrim holatlarda bir kengaytirilgan bo'lak ichida yana yoyiq aniqlovchining kelish xolati ham kuzatiladi. *Bir necha kundan beri kallasi ichi bo'shagan xumdek xuvillab yurgan Maxsum kechki ovqatni ishtahasizlik bilan eb, dasturxonga nari-beri fotiha o'qidi* /V. G'afurov, "Vafodor"/.

Ana shu ko'rib o'tilganlarning o'ziyoq ko'rsatadiki, *Otam keltirgan xabar hammamizni hayajonga soldi* tipidagi gaplar sodda gap bo'lib, bularda bosh kelishikda qo'llangan so'z u bilan birikkan sifatdosh bilan /otam keltirgan/ bir sintaktik butunlik – so'z birikmasini hosil qiladi, bu so'z birikmasi gapda yaxlit bir bo'lak vazifasida kelib, tahlilning ikkinchi bosqichida yarim predikativlik(o'z bog'lashuv imkoniyatidagi kengayishlar) jihatidan tahlil etiladi. SHuning uchun gaplar tarkibida qo'llanuvchi aniqlovchilarning yoyiq yoki kengaygan turlarini tahlil etishda kengaytirilgan bo'laklar sifatida e'tirof etish maqsadga muvofiqdir. Bundan chiqadigan muhim xulosa shuki, aniqlovchiningina emas, boshqa gap bo'laklarining ham kengaytirilgan turlari uchraydiki, ularni tuzilishiga ko'ra bir bo'lak sifatida umumlashtirish, ammo sitem-struktur jihatdan ikkinchi darajali predikasiya hosil qilish nuqtai nazaridan o'ziga xos nofunkionallik xususiyatini ochish navbatdagi ishlar sirasida e'tirof etiladi. Bu gap bo'laklarining tuzilishiga ko'ra turlarini farqlash masalasiga ham birmuncha tegishli bo'ladi deb o'ylaymiz.

3 §. Tuzilishiga ko'ra gap bo'laklarini turlarga ajratish xususida

Gaplar tarkibidagi bo'laklar masalasi tilshunoslikda endi o'rganila boshlangan narsa emas. Bu borada uzoq yillik tadqiqotlarni ko'zdan kechirish mumkin. Bu ishlarda faqat gap bo'laklarini oddiy ajratishgina emas, ularning tuzilishiga ko'ra tasnifi bo'yicha ham bir nechta ishlar amalga oshirilganini ta'kidlash kerak.

Affiks, so'z, so'z birikmasi va gaplarni tuzilishiga ko'ra ikki turga ajratish va ularni sodda, qo'shma-murakkab kabi so'zlar ishtirokida yasaluvchi nomlar bilan atash (sodda so'z – qo'shma so'z, sodda gap – qo'shma gap kabi) o'zbek tiliga oid ishlarda sistemali tarzda davom etib keladi. Biroq gap bo'laklariga kelganda bu borada uzilish bo'lganday seziladi. O'zbek tili sintaksisiga oid ishlarda gap bo'laklaridan faqat kesimgina tuzilishiga ko'ra turlarga ajratiladi va

ular sodda kesim, qo'shma kesim, sostavli kesim kabi turlicha nomlar bilan ataladi. Albatta aytish kerakki, gap bo'laklarini strukturasi ko'ra tasniflash masalasida ham yuqorida ta'kidlab o'tilgan kengaygan, yoyiq kabi gap bo'laklari masalasi inobatga olinadi. CHunki ularning tuzilishida nechta so'z ishtirok etishi ularni sodda, qo'shma, murakkab kabi atamalar bilan yuritilishiga sabab bo'ladi.

Gap bo'laklarining tuzilishiga ko'ra klassifikatsiyasidagi bunday holat o'zbek tili sintaksisini boshqa tillar (jumladan, rus tili) sintaksisiga oid ishlarga xos qolip asosida bayon qilishning natijasidir degan tilshunoslarimiz ham bor⁴. Bevosita til faktlaridan kelib chiqiladigan bo'lsa, gap bo'laklaridan faqat kesimgina emas, balki boshqa gap bo'laklari ham tuzilish jihatdan turlarga ajratilishi mumkin. CHunki boshqa gap bo'laklari ham bir so'z yoki birdan ortiq so'zdan iborat butunliklar bilan ifodalanishi mumkin. Bunga yuqorida ta'kidlangan kengaygan gap bo'laklari haqidagi fikrlar ham misol bo'lishi tabiiy. Masalan: *Kirgan kishilarga eng avvalo uy egalarining didi baland ekanligi, toza, pok hayot kechirishligi ko'zga chalinardi (M. Ismoilov) Jo'raboevning oqarib ketgan jingalak sochlari, ko'zlari yonidagi ajinlar yoshi elliklarga borib qolganligini bildirib turardi (P. Qodirov)*. Birinchi misolda ega, ikkinchi misolda to'ldiruvchi birdan ortiq mustaqil so'zli butunlik bilan ifodalangan.

Demak, tuzilish jihatdan faqat kesimlarga emas, boshqa bo'laklar ham turlarga ajratilishi mumkin.

Bu masala yuzasidan biror fikr aytishdan oldin o'zbek tilshunosligida kesimlarning tuzilish jihatdan turlarga ajratilishi, buning qay darajada asosli yoki noto'g'riligi, bunday turlarga nisbatan qo'llanayotgan terminlarning maqbul yoki nomaqbulligi haqida to'xtab o'tishga to'g'ri keladi.

Avvalo shuni aytish kerakki, o'zbek tilshunosligida kesimlar tuzilishiga ko'ra turlarga ajratilib kelinayotgan bo'linsa-da, lekin ularning turini belgilashda bir xil fikrga kelinmagan. SHuningdek, ularning nomlanishi ham turlicha.

Kesimning "sodda" deb ataluvchi turidan farqli deb qaraladigan turi o'zbek tiliga oid adabiyotlarda qo'shma kesim, sostavli kesim, murakkab kesim kabi

⁴ H.Nematov va boshqalar. O'zbek tili struktural sintaksisi asoslari. T. Universitet. 1999.

nomlar bilan yuritiladi. Bu o'rinda quyidagi ikki asosiy masalaga to'xtab o'tish kerak bo'ladi: 1. tuzilish jihatdan "sodda"dan farqli deb qaralayotgan kesimning mohiyatini qanday tushunish masalasi; 2. kesimning tuzilish jihatidan "sodda"dan farqlanuvchi turining nomlanishi (ularga nisbatan qo'llanayotgan terminlar) masalasi.

Maktab va oliy o'quv yurtlari uchun chiqarilgan o'zbek tilidan darslik va qo'llanmalarda kesimlar tuzilish jihatidan ikki asosiy turga ajratiladi: 1. sodda kesim, 2. sostavli kesim (murakkab kesim). Sostavli kesim (murakkab kesim) deganda, "ot+bog'lama" tipidagi (injener bo'ldi) kesimlar, "etakchi+ ko'makchi fe'l"dan tuzilgan analitik formalar bilan ifodalangan kesimlar (yozib berdi, aytib berib qo'ya qol kabi), hatto sodda so'z va edi, ekan, emish, emas bilan ifodalangan (mevazor edi, yaxshi ekan, beillat emas kabi) kesimlar tushuniladi.

J. Omonturdievning o'zbek tilida kesimning struktur tiplariga bag'ishlangan nomzodlik dissertatsiyasida kesimning struktur jihatdan to'rt tipi farqlanadi: 1. sodda kesim; 2. sostavli kesim; 3. murakkab kesim; 4. birikmali kesim⁵.

Xuddi shu muallifning ishtirokida oliy o'quv yurtlarining filologiya fakul'tetlari sirtqi bo'lim studentlari uchun yaratilgan o'zbek tilidan qo'llanmada esa tuzilishiga ko'ra, kesimlar uch turga ajratiladi: 1. sodda 2. sostavli 3. murakkab kesimlarga ajratiladi. Bu har ikki ishda ham "sostavli kesim" deganda "Mustaqil so'z bilan turli grammatik ma'nolarni ifodalovchi yordamchi so'zlarning birikishidan hosil bo'lgan kesimlar" tushuniladi.

Hammualiflikda yaratilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kitobida tuzilishiga ko'ra kesimning quyidagi turlari farqlanadi: 1. sodda kesim. 2. sostavli kesim 3. birikmali kesim 4. qorishiq kesim. Mazkur ishda ham "sostavli kesim" deganda bir mustaqil so'z va umuman, mustaqil bo'lmagan so'zdan (mustaqil so'z+bog'lama, mustaqil fe'l+ ko'makchi fe'l, mustaqil so'z+ to'liqsiz fe'l, mustaqil so'z+ iborat so'zi va boshqalar bilan) ifodalangan kesimlar tushuniladi.

Lekin shuni alohida ta'kidlash kerakki, yordamchi so'zlar, jumladan bog'lama, ko'makchi fe'l va to'liqsiz fe'l hech qachon qo'shma, sostavli yoki murakkab deb

⁵ J.Omonturdiev. Gap bo'laklari tipologiyasi.O'qituvchi.1992.

atalishi mumkin bo'lgan birlikni hosil qilmaydi. Ular aynan bir so'zning formasini hosil qiladi. Masalan, aytib berib qo'ya qoldi birikuvi **aytmoq** fe'lining uch ko'makchi fe'l bilan yasalgan analitik formasi. Bu birikuvni (ya'ni bir so'zning analitik formasini) qo'shma fe'l (qo'shma so'z) deb bo'lmagani holda, uni qo'shma kesim yoki murakkab kesim deyish mutlaqo mumkin emas. Mustaqil so'z va yordamchi so'zdan ifodalangan har qanday kesim (umuman har qanday gap bo'lagi) sodda kesimlar (sodda bo'laklar) qatoriga kiradi.

“Sostavli kesim” termini esa umuman maqbul emas. Chunki bu termin tarkibidagi sostavli so'zi kesimning “sodda”dan farqlanuvchi turining, shuningdek, “murakkab” yoki “qorishiq” deb atalayotgan turidan farqlanuvchi tipining mohiyatini to'liq ko'rsata olmaydi.

Hozirgi zamon o'zbek tili grammatikasiga oid asarlarda yakka so'z bilan ifodalangan bo'laklar sodda bo'lak termini bilan, ikki va undan ortiq mustaqil so'z bilan ifodalangan bo'laklar esa qismlarga ajratilmaydigan so'z birikmalari bilan ifodalangan bo'lak, butun bir birikma bilan ifodalangan bo'lak, butun bir ajralmas birikma bilan ifodalangan bo'lak, birikma aniqlovchi tarkiblar orqali ifodalangan bo'lak, so'zlar birikmasida ifodalangan bo'lak kabi qator parallel terminlar bilan yuritilmoqda. Qayd qilingan terminlar amaliy ishda qanchalik qiyinchiliklar tug'dirayotganligi ham ko'pchilikka sir emas.

Fikrimizcha, aynan bir xil sintaktik hodisa uchun turli-tuman terminlarning ishlatilishi yoki ayrim ishlarda turli grammatik kategoriyaga taalluqli so'zlar birikuvi bilan ifodalangan gap bo'laklari o'zaro farqlanmay bir termin ostida o'rganilayotganligi o'zbek tili grammatikasi bilan shug'ullanuvchilarga ham amaliy, ham nazariy qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Birdan ortiq mustaqil so'z birikuvi bilan ifodalangan gap bo'laklarini nomlashdagi terminologik anarxiyaning boisi nimada?

Bizningcha, birdan ortiq mustaqil so'z bilan ifodalangan gap bo'laklarini nomlashdagi terminologik har xillik, birinchidan, mavjud darsliklarning turli avtorlar tomonidan yozilganligi, har bir avtorning termin yasashda o'ziga xos vosita va usullari borligi bilan izohlansa, ikkinchidan, o'zbek lingvistik

terminologiyasi hozircha shakllanish davrini o'tayotganligi, uchinchidan, bu muhim gap bo'laklari strukturasi ko'ra chuqur va atroflicha o'rganilib, tasnif qilinmaganligi bilan izohlanadi.

Konkret til materialiga murojaat etaylik: *Senlarning burningni erga ishqaydigan zamon kelib qoldi-ku* (H. SHams). Bu misolda frazeologik ibora bilan ifodalangan. *Vofurush o'ng chakkasini ikki qo'llab ushlagancha ... ko'cha tomon yo'naldi* (A.Qahhor). Bu misolda hol sifatdash oboroti bilan ifodalangan.

Sirtidan qaraganda yuqoridagi misollarda ham gap bo'laklari so'zlar bog'lanmasi bilan ifodalangan va bular o'rtasida farq yo'qdek tuyuladi. Biroq aslida bular o'rtasida katta katta farq bor: frazeologik iboralar – leksikologiya bo'limida, tarkibli so'zlar -- morfologiya bo'limida, sifatdash va shunga o'xshash oborotlar, shuningdek, izofali konstruksiyalar grammatikaning sintaksis bo'limida o'rganiladi.

Qayd qilingan bog'lanmalar va birikmalar o'zbek tilshunosligida ayrim-ayrim o'rganilgan va bu haqida qimmatli fikrlar bayon etilgan. Gap shundaki, turli tipdagi bu birikuvlarning gapdagi sintaktik vazifasi va ularni nomlash masalasi hanuzgacha uzil-kesil hal qilinmagan. SHuning uchun yuqorida qayd qilinganidek, bu tipdagi gap bo'laklarini nomlashda terminologik anarxiya hamon hukm surmoqda.

Fikrimizcha, birdan ortiq so'zlar bilan ifodalangan gap bo'laklarini qismlarga ajratilmaydigan so'z birikmalari bilan ifodalangan bo'lak yoki shunga o'xshash terminlar bilan atash to'g'ri emas. CHunki bu xil terminlar gap bo'lagi strukturasi aniq belgilashga imkon bermaydi. Bunday terminlar gap bo'laging ifoda materialiga ishora, xolos.

Gap bo'lagi funksiyasida qo'llanuvchi barcha birikmalarni avvalo ikki katta gruppaga ajratish mumkin. SHundagina bir mustaqil so'z yoki so'zlar bog'lanmasi bilan ifodalangan gap bo'laklarini nomlash, ya'ni hozirgacha qo'llanib kelayotgan parallel terminlarni unifikasiya qilishga imkon tug'iladi.

Gap bo'lagi funksiyasida qo'llanuvchi barcha so'z bog'lamalarini avvalo ikki gruppaga: a) leksik birikmalar va 2) sintaktik birikmalarga ajratish ma'qul.

Akademik I. I. Мещчанinov ham so'z birikmalarining bir qismi sintaksisda o'rganilsa, ma'lum qismi leksik xaraterga ega ekanligini alohida qayd qilib o'tgan.

Tarkibli so'zlar, frazeologik birikmalar bir ma'no markaziga ega bo'lishi va oddiy tushunchalarni ifoda etishi bilan murakkab tushunchalarni ifoda etuvchi sintaktik birikmalar: izofali konstuksiyalar, fe'ning funksional formalari bilan birga kengayib kelgan turli oborotlar, shuningdek bir butun holda qo'llanadigan yoki sintaktik konstruksiyalardan tamomila farq qiladi. Bu xususiyatlar gap bo'laklarini, ifoda materialiga ko'ra, ikki gruppaga bo'lib bo'lib o'rganish zarurligini taqozo etmoqda:

1. Leksik butunliklar bilan ifodalangan gap bo'laklari
2. Sintaktik butunliklar bilan ifodalangan gap bo'laklari.

Birinchi gruppaga gap tarkibida ham, gapdan-kontekstdan tashqarida ham o'z yaxlitligi, butunligini saqlaydigan qo'shma so'z, juft so'z, tarkibli so'zlar, shuningdek frazeologik iboralar bilan ifodalangan bo'laklarini kiritamiz. Leksik butunliklar bilan ifodalanuvchi gap bo'laklari sintaktik birikmalar bilan ifodalangan gap bo'laklaridan batamom ajralib turadi, shuning uchun bunday bo'laklarni **sodda bo'lak** termini ostida o'rganish leksik butunliklar tabiatiga mos keladi. Leksik butunliklar tarkibinig kengayishi morfologik hodisa bo'lib, ularni sodda bo'lak doirasidan tashqarida o'rganishga imkon bermaydi. CHog'ishtiring: Ko'z qarosi - farzand so'ziga teng. CHol ko'z yumdi iborasi *o'ldi* so'ziga teng keladi. Biz bu o'rinda leksik birikmalar bilan sintaktik birikmalar o'rtasidagi farqlar haqida keng to'xtalmadik.

Qora ko'zli yigit keldi gapidagi *qora ko'zli* birikmasini yoki *Mirzakarimboy xotiniga dasturxon olib chiqishini buyurdi* gapidagi *dasturxon olib chiqishini* konstruksiyasini biror so'z bilan almashtirib ham bo'lmaydi, sintaktik tahlilda bu xil birikmalarni bir-biridan ajratib ham bo'lmaydi. Sintaktik birikmalarning bu xususiyatlarini hisobga olgan ba'zi olimlar bu xil gap bo'laklarini ajralmas **yumuq** bo'lak termini bilan ataydilar.

Ikkinchi gruppaga ikki va undan ortiq mustaqil soʻzdan tarkib topib, komponentlari muayyan konkret gap sostavida oʻzaro zich bogʻlanib, yaxlit butunlik tashkil etgan va kontekstda, gapda u yoki bu sintaktik funksiyani bajaruvchi konstruksiyalarni nazarda tutamiz. Bu xil konstruksiyalarning, yaʼni sintaktik butunliklarning ajralmaslik holatiga ega boʻlishi konkret gap chegarasidagi sintaktik hodisa boʻlib, boshqa gapda bayon etilayotgan mazmun talabiga koʻra konstruksiyalar tarkibidagi mustaqil soʻzlar yaxlitligi yoʻqolishi va har bir mustaqil soʻz ayrim-ayrim gap boʻlagi funksiyasida kelishi ham mumkin. Taqqoslang: *Kishiga zebu-ziynat hikmat va donishdir* (A. Navoiy). *Bu kishi Adolat opam boʻladilar* (H. Gʻulom).

Birinchi gapda kishi soʻzining yolgʻiz oʻzi gapda sintaktik funksiyani bajarayotir, ikkinchi gapda esa kontekst talabi, forma va mazmun birligiga koʻra kishi soʻzi bu koʻrsatish olmoshi bilan birga ajralmas butunlik hosil etib gapda ega funksiyasini bajarmoqda.

Sintaktik butunliklarning tabiati, tashqi formasi, butunlik sostavidagi komponentlarning ichki bogʻlanishi, butunlik tarkibidagi komponentlarning oʻzaro munosabati, butunlikdagi hokim komponentning ifoda matreiali bu tipdagi gap boʻlaklarini uch turga boʻlib oʻrganish va quyidagicha nomlashni, termin belgilashni taqozao etadi. 1.Sostavli boʻlaklar. 2. Murakkab boʻlaklar. 3. Kengaytirilgan boʻlaklar.

Fikrimizcha, bu terminlar yuqorida qayd qilib oʻtilgan terminologik har xillikka chek qoʻyadi va amaliy ishda qulaylik tugʻdiradi. Prof. R. A. Budagov ham “koʻpincha taxmin va ilmiy gipotezalardan haqiqatga oʻtish oʻsha tushunchaga muvofiq keladigan termin belgilash orqali tezlashtiriladi” deb juda toʻgʻri taʼkidlaydi. Bu terminlar xususida ham qisqacha qaydlarni eslatib oʻtish zarur.

1. Sostavli boʻlaklar. Mavjud lingvistik adabiyotlarda, odatda, faqat kesimning sostavli koʻrinishi qayd qilinadi. Stasionar kuzatishlar sostavli kesimga xos belgilar gapning boshqa boʻlaklarida ham mavjud ekanligini koʻrsatmoqda. SHunday ekan, sostavli kesimlarga xos belgilarga ega boʻlgan boshqa boʻlaklarni

ham sostavli bo'lak o'rtasidagi prinsipial farq shundaki, ko'makchi fe'l (yoki bog'lama) sostavli kesimda ega va kesimni aloqaga kiritish va kesimning grammatik belgilari: zamon, shaxsni, mayl-modallik, ya'ni predikativlikni ta'minlash uchun xizmat qiladi.

Gapning ikkinchi darajali bo'laklarida predikativlik bo'lmaganligi tufayli yordamchi komponent, ya'ni ko'makchi fe'l ikkinchi darajali bo'laklarda shaxs, zamon, mayl kbi grammatik ma'nolarni ifoda etolmaydi. Ammo shunisi xarakterliki, ko'makchi fe'lsiz yolg'iz etakchi so'zning o'zi gap bo'lagini shakllantira olmaydi. Misollarga e'tibor bering: Oyqiz paxtakorlarga yordam berdi (SH. Rashidov). Sostavli kesim. Respublikadagi paxtakorlarga yordam berish har bir fuqaroning vatanparvarlik burchidir – sostavli ega. Oyqiz paxtakorlarga yordam berish uchun sinfdoshlari bilan jo'nadi (SH. Rashidov) – sostavli to'ldiruvchi.

2. Murakkab bo'laklar. Gap bo'laklari hamma vaqt sintetik va analitik formalar bilan ifodalanavermaydi. Ko'pincha ikki va undan ortiq mustaqil so'zlar gap ichida ajralmas sintaktik konstruksiyalar hosil etib, gapda bir sintaktik funksiyani bajarishi ham mumkin. Bu tipdagi gap bo'laklari ayniqsa, keng ma'nodagi atributiv birikmalar negizida vujudga keladi. Masalan, Ikki og'ayni O'qchiga, Botirali uyiga yo'l olishdi (H. G'ulom). Samovarchi qo'shaloq barmoqli panjasini cho'zib bir ko'chani ko'rsatdi (Oybek). Darichani jindak qiya qilib bir ko'zi bilan tashqariga qaradi (A. Qahhor).

Bu misollarda ikki og'ayni, qo'shaloq barmoqli, bir ko'zi bilan birikmalarini ajratish va alohida-alohida gap bo'lagi deb talqin qilish gap mazmuniga putur etkazadi. CHog'ishtiring: Qo'shaloq barmoqli panja – qanday panja? Barmoqli panja – panja barmoqsiz bo'lmaydi, shuning uchun bu tip iboralar mantiqan xatodir. YOki *bir ko'zi bilan tashqariga qaradi* kabi mujmal, mantiqsiz gap hosil bo'ladi.

Bu tip birikmalar bilan ifodalangan gap bo'laklarini sostavli bo'laklardan ajratgan holda murakkab bo'lak termini bilan atasak, bu xil bo'lak tabiatini ochib bera oladi. Bu boshqa tilshunoslar tomonidan ham e'tirof qilingan.⁶

Murakkab bo'laklar xuddi ot so'z turkumi singari predmet ma'nosini, ravish singari turli holat ma'nolarni ifoda eta oladi. SHuning uchun murakkab bo'laklarni, semantikasiga ko'ra, quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Predmet mazmunini ifoda etuvchi murakkab bo'laklar : Ikki do'st qo'l ushlab uylariga ketdilar ("Mushtum") . YAxshi buzoq ikki onani emadi (Maqol). Otalar so'zi aqlning ko'zi (Maqol).
2. Atributiv munosabatidagi murakkab bo'laklar: Jamshid qo'nji uzun botinkasini kiyib chiqdi (SH. Xolmirzaev). Direktor qora telpakli o'qituvchini chaqirdi (Gazetadan).
3. Saylash – ajratish mazmunidagi murakkab bo'laklar: Bir kuni imtihon paytida professor studentlardan sho'xrog'iga shunday savol tashlabdi ("Fan va turmush").
4. Holat mazmunini ifoda etuvchi murakkab bo'laklar: Yo'lchi titroq ovoz bilan qizni yupatdi (Oybek).
5. O'xshatish mazmunini ifodalovchi murakkab bo'laklar: Muzikaning ovozi tong elidek tarqalmoqda (Gazetadan).
6. Miqdor mazmunini ifoda etuvchi murakkab bo'laklar: Bolani ikki oygacha boqib turdik (H. Olimjon).
7. Makon mazmunini ifodalovchi murakkab bo'laklar: Buxoroning o'zida ikki yuzdan ortiq osor- atiq binolar bor (Gazetadan).
8. Payt mazmunini ifodalovchi murakkab bo'laklar: U institutda besh yil ta'lim olgan (Gazetadan).

V. V. Vinogradov ham gap bo'lagi funksiyasini bajaruvchi ikki va undan ortiq mustaqil so'zlarning bu xususiyatlarini hisobga olib, gap bo'laklarini belgilashda ularning semantikasiga alohida e'tibor berish zarurligini, aks holda gap mazmuniga putur etkazilishini alohida ta'kidlaydi va quyidagi misolni keltiradi.

CHelovek c umom ne propadaet gapida chelovek so'zi emas, balki chelovek c umom birikmasi gapning egasi ekanligini aytadi.

3. Kengaytirilgan bo'lak. Kengaytirilgan bo'laklarning o'ziga xos xususiyatlari ularni, yuqorida ko'rib o'tganimizdek, sostavli va murakkab bo'laklardan ajratadi. Kengaytirilgan gap bo'laklarda ajralmas butunlikning hokim komponenti sifatida fe'ning funksional formalari: ravishdosh, sifatdosh va harakat nomi qo'llanadi. Fe'ning funksional formalari gap tarkibida ko'pincha yolg'iz gap bo'lagi funksiyasida kela olmaydi. Ular o'ziga qarashli boshqa mustaqil so'zlar bilan kengayib kelib, u yoki bu bo'lakning gap bo'lagi vazifasini bajaradi: *Razzoq hozirgina savod darsi o'tkazilgan xonga kirdi* (H. G'ulom). *Mirzakarimboy xotiniga dasturxon olib chiqishni buyurdi* (Oybek).

Kengaytirilgan gap bo'laklarining hokim komponenti fe'ning funksional formalaridan ifodalanganligi uchun bu tip konstruksiyalarda predikativlik mavjuddek tuyuladi. SHu boisdan bo'lsa kerak, o'zbek tilining taraqqiyot jarayonida, turkiy tillarda ham bu tip konstruksiyalar ergash gapli qo'shma gapning ergash komponenti sifatida talqin qilinadi. Aslida esa kengaytirilgan bo'laklar sodda gapning transformasiyalashishi natijasida yuzaga keladi va sodda gap sostavida barcha gap bo'laklari funksiyasida kela oladi. Kengaytirilgan bo'lakalar sostavidagi tobe komponentlar bir tomondan ikkinchi darajali bo'laklar gap kesimiga tobe bo'lgani kabi fe'l formasiga tobe bo'lsa, ikkinchi tomondan kengaytirilgan bo'lak ajralmagan holda, yaxlitligicha gapda bir bo'lak funksiyasini bajaradi.

Sirtqi bo'limlar uchun chiqarilgan yuqorida ko'rsatilgan qo'llanmada "murakkab kesim" deganda "Ikki va undan ortiq so'zlarning grammatik-semantik munosabatidan tashkil topib, bir butun holda kesim sifatida ajratiladigan morfologik-sintaktik hodisalar" tushuniladi deyilgan. Hammualliflar tomonidan yaratilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili"da (1996) "birikmali kesim" "... birdan ortiq ot (yoki son, sifat, olmosh, ravish)larning o'zaro aniqlovchi-aniqlanmish aloqasidan yuzaga keladi" deb "qorishiq tarkibli kesim" esa "asosan ot va fe'l"

turkumidagi soʻzlar hamda soʻz turkumlarining boshqa turlari ishtirokida yuzaga keladi” deb taʼriflanadi.

Bu oʻrinda “murakkab kesim”, “birikmali kesim”, “qorishiq tarkibli kesim” larga berilgan misollarni keltirib oʻtirmaymiz. Faqat kesimlarni tuzilish jihatdan turlarga ajratish haqida oʻz mulohazalarimizni aytish bilan chegaralanamiz. Nazarimizda, gap boʻlaklarini, jumladan, kesimlarni tuzilishiga koʻra turlarga ajratishda soʻz va gaplarni tuzilishiga koʻra turlarga ajratishda boʻlgani kabi umumiy prinsipga asoslanish eng maʼqul yoʻl hisoblanadi. YAʼni soʻzni sodda yoki qoʻshma deb ajratishda uning mustaqil leksik maʼnoli bir yoki undan ortiq komponentdan tuzilganligi, gapni sodda yoki qoʻshma deb ajratishda uning bir yoki undan ortiq gapdan tuzilganligi asosga olinadi. Demak, kesimni tuzilish jihatdan turlarga ajratish kerak boʻlsa, uning bir yoki birdan ortiq “kesimdan tashkil topishi” asosga olinishi lozim boʻlar edi. Biroq kesimning bunday turi yoʻqligi maʼlum. SHunday ekan, kesimlarni tuzilishiga koʻra turlarga ajratish kerakmi, yoʻqmi? -degan savol tugʻilishi ham tabiiy.

1. Kesimni (umuman gap boʻlaklarini) bir-biriga nisbatan olinuvchi (sodda – qoʻshma, sodda – murakkab kabi) turlarga ajratishga etarli asos yoʻq. Hodisaning mohiyatini aniq ifodalash oʻqish-oʻqitishdagi ishlarni engillashtirish uchun kesimning qanday birliklar bilan ifodalanishini (soʻz, soʻz+yordamchi soʻz, soʻz birikmasi va hakoza) koʻrsatish bilan chegaralanish kifoya.
2. YUqorida aytilganlardan maʼlum boʻladiki, kesimni, umuman, gap boʻlaklarini bir-biriga nisbatan olinuvchi (sodda-qoʻshma, sodda – murakkab, sodda – sostavli kabi) turlarga ajratish na ilmiy, na amaliy ahamiyatga ega. SHuning uchun, umuman, gap boʻlaklarini (jumladan, kesimni) bir necha turlarga ajratish va ularni “qoʻshma”, “sostavli”, “murakkab” kabi farqlovchi terminlar bilan atashga hech qanday asos ham, ehtiyoj ham yoʻq deb oʻylaymiz.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, murakkab til hodisalari sintaktik tahlilda dialektikaning forma va mazmun birligi haqidagi qonuniyatiga asoslanishi va shu nuqtai nazar bilan yoritilishi zarur.

4 §. Gap qurilishida aniqlovchi va to'ldiruvchi

An'anaviy tilshunoslikda sintaksis borasida ayrim cheklangan tomonlarning mavjudligini o'z vaqtida turkiyshunos olimlar ham payqaganlar va aniqlovchining gapning konstruktiv bo'lagi ekanligiga shubha bilan qaraganlar. Jumladan, N.A.Baskakovning fikricha, aniqlovchining miqdoridan qat'iy nazar, har qaysi aniqlanmish gap tarkibida o'zining sintaktik pozitsiyasiga ega bo'ladi va aniqlovchi bilan bir butun holda bir gap bo'lagi sanaladi ⁷.

Ba'zi o'zbek tilshunoslari ham ikkinchi darajali bo'laklarning gapdagi maqomi yuzasidan an'anaviy qarashlarga tanqidiy munosabatda bo'lganlar. Xususan, professor SH.Rahmatullaev XX asrning 70-yillarida gap bo'laklari, jumladan, ikkinchi darajali bo'laklarni ajratishda mavjud qarashlarga tanqidiy nuqtai nazardan qaragan va quyidagilarni yozgan: "... SHuni ta'kidlash kerakki, sifatlovchiga so'roqni sifatlanmishdan kelib chiqib beramiz. Demak, sifatlovchining so'rog'i ma'lum ma'noda ichki so'roq bo'ladi. Biror bo'lak vazifasida sifatlovchili birikma keladi. Sifatlovchiga beriladigan so'roq ana shu bo'lak vazifasida kelgan birikmaning ichki tuzilishiga doir bo'ladi.

YUqorida aytilgan ichki xususiyat (tartib erkinligining yo'qligi va ichki so'roqqa javob bo'lishi) sifatlovchining sintaktik mohiyatini belgilab qo'yadi. Sifatlovchi bo'lak ichidagi bo'lak, bo'lakning bo'lagi bo'lib keladi. Sifatlovchining o'ziga xos ayri xususiyatlari borligidan kelib chiqib, uni bir vaqtlar uchinchi darajali bo'lak deb ham yuritishgan, ammo keyinchalik bu tushuncha va termindan voz kechilgan. Asli bu termin hodisasining mohiyatini aniq ochib bermaydi. Bizningcha, sifatlovchini aniqlovchining barcha turlarini ham gapning bo'lagi deb emas, birikmaning bo'lagi deb atash to'g'riroqdir".

⁷ Baskakov N. A. Prostoe predlojenie v karakalpakskom yazyke. V.knige: Issledovanie po sravnitel'noy grammatike tyurkskix yazykov. Sintaksis.M. 1961. s. 67

YUqorida ta’kidlagan fikrga qo’shilsak sifatlovchi o’z sifatlanmishi bilan birgalikda bir bo’lak vazifasida keladi deb umumiy bir qoida chiqarish mumkin. Bu bilan gapni sintaktik tahlil qilish ancha osonlashadi. Birikmaning gap uchun (asli bo’lak uchun) qurilish materiali sifatida xizmat qilishini tan olgan bo’lamiz⁸.

Professor N. Mahmudov aniqlovchilarni gapning konstruktiv bo’lagi hisoblamagani holda, to’ldiruvchi va holning gapdagi vazifasini farqlash lozimligini ko’rsatadi. Uning ta’kidlashicha, ikki va undan ortiq predikat qatnashganda, ulardan biri asosiy, qolganlari ikkinchi darajali holatda bo’ladi⁹. SHuning uchun bo’lsa kerak, gap bo’laklariga funksionallik va nofunkcionallik xususiyatlari asosida qarash tilshunoslikka kirib keldiki, bu gap bo’laklarining gap qurilishidagi mavqei masalasiga oydinlik kiritishga xizmat qildi. Bu nazariya nuqtai nazaridan qaralganda, aniqlovchi to’ldiruvchi va holdan tubdan farq qiladi. Bu farq shundaki, aniqlovchi gapning asosiy kesimiga hech qachon bevosita bog’lanish imkoniyatiga ega bo’lmaydi. Bu esa SH.Rahmatullaev ta’biri bilan aytganda, bo’lakning bo’lagi vazifasini bajarishidir. Boshqacha aytganda, aniqlovchi sof so’z kengaytiruvchisi mavqeidagi gap bo’lagi hisoblanadi. Tilshunoslikda bu masalani nazariy tomondan atributiv kengaytiruvchi sifatida talqin etish ham mumkin. So’nggi yillarda tilshunoslikka oid ayrim adabiyotlarda so’z kengaytiruvchisi, gap kengaytiruvchisi kabi atamalar paydo bo’lib borayotganini ham ko’pchilik yaxshi biladi. Bunday talqin bo’yicha aniqlovchining gap qurilishidagi mavqei to’ldiruvchi bilan ham tenglashtiriladi. To’ldiruvchi va hol gapning konstruktiv bo’lagi bo’lsa, to’ldiruvchi qaysi jihatdan aniqlovchi bilan tenglashadi? –degan haqli savol tug’ilishi mumkin. Buning uchun quyidagi misolni keltirish orqali fikrimizni isbotlaymiz: “O’quvchilar yangi ko’chatlarni issiqxonada o’stirdilar” jumlasida *qo’chatlarni* an’anaviy sintaktik tahlil doirasida olinsa, to’ldiruvchi, funksional to’ldiruvchi deyiladi. Biroq *ko’chatlarni* to’ldiruvchisi ayni vaqtda

⁸ Rahmatullaev SH. Nutqimiz ko’rki. T.1970.

⁹ Nurmonov A. Tilni sistemali o’rganish va sintaksisning ayrim munozarali masalalari. O’TA, 1988, 6- son. 22-26-b.

o'zi tobelanib kelayotgan hokim mavqedagi kesimlikni shakllantirgan atov birlik(o'stirmoq)ning kengaytiruvchisidir. Chunki *o'stirmoq* atov birligi kesimlik vazifasidan tashqari boshqa qaysi gap bo'lagi vazifasida kelmasin ko'chatlarni to'ldiruvchisi bilan potensial imkoniyat sifatida birikib kelaveradi. Bunga sabab esa boshqaruvchi so'z *o'stirmoqning* ma'noviy uzvida "ko'chatlar"ning valentlik sifatida mavjudligidir. Misol uchun: *O'quvchilar yangi ko'chatlarni issiqxonada o'stirganlarida yaxshi bo'lar edi*. Yoki: *Yangi ko'chatlarni o'stirish o'quvchilar uchun qiziqarli bo'ldi* kabi jumlar tahlilga tortilganda ham yuqoridagi holat mavjudligiga iqrar bo'lish mumkin. To'ldiruvchilarning aniqlovchilar kabi vositali va vositasiz turi ajratilishi ma'lum. SHuning uchun ularning faqat vositasiz deb ajratilgan turida shu holat kuzatiladimi?- deyilishi ham tabiiy xol. Yo'q albatta, vositali to'ldiruvchilar ham yuqoridagi kabi xususiyatga ega. Masalan, "Berilgan topshiriqni kitobdan yozdim" jumlasidagi *kitobdan* vositali to'ldiruvchi boshqa jumlada: "Topshiriqni kitobdan yozganimni ko'pchilik sezdi", "Men topshiriqni kitobdan yozishga tavsiya etmagan edim" kabi gaplarda ham yuqoridagi fikrlar tasdiqlanadi. Bu bilan to'ldiruvchilar ham gap qurilishida konstruktiv bo'lak bo'la olmaydi, deyish noto'g'ri. Ammo ularning nutqda bevosita kuzatishga berilishi u bog'lanib kelayotgan hokim mavqedagi so'zning lug'aviy ma'nosiga bevosita aloqadordir. SHu boisdan aniqlovchi va to'ldiruvchilarning gap qurilishidagi mavqei borasida gap borganda, har ikki bo'lak bir xil - so'z kengaytiruvchisi sifatida keladi, deb baholash kerak. Anglashiladiki, aniqlovchilar faqat propozitiv nomlanish tarkibida funksiyalanib, kesim, ega, to'ldiruvchi, hol sintaktik pozisiyalarida kelayotgan bo'laklarning tarkibiy qismi sanalgani kabi to'ldiruvchilar ham gap qurilishida so'z kengaytiruvchi vazifasida keladi. Ular faqat propozisiya ichki uzvlari bo'lingandagina ularning tarkibidan ajraladi. Hozirgi zamon tilshunosligida ikkinchi darajali bo'laklarning hammasi gap konstruktivligiga ega emasligini isbotlamoqda. SHuning uchun ham ikkinchi darajali bo'laklar gapning bo'lagimi yoki bo'lakning bo'lagimi ekanligini farqlash galdagi tadqiqotlarga asos bo'ladi.

II bob.O'ZBEK TILI IXCHAM GAPLARIDA BO'LAKLANISH, ULARNING NUTQIY IFODASI VA GAP QURILISHIDAGI MAVQEI

1 §. [WRm] – ixcham gap qolipi va kengaytiruvchilar munosabati

Tilshunoslikda sintaksisning nisbatan turg'un, o'ta sekin o'zgaruvchan sath ekanligi haqida fikrlar mavjud, Bu fikrlar tarixiy, qiyosiy va qiyosiy-tarixiy tilshunoslik asoschilari K.Brugman, G.Paul kabilar tomonidan XIX asr boshlarida ilgari surilgan bo'lsa-da, hozir ham bunday qarashlarni "Tilshunoslikka kirish", "Umumiy tilshunoslik", "Tilshunoslik tarixi" kabi darsliklarda aksioma tarzida uchratish mumkin. Xaqiqatan ham, sintaksis va sintaktik qurilish o'zining turg'unligi bilan alohida ajralib turadi. Til lug'at boyligining o'zgarishini har yil, har oy davomida, fonetik tizim o'zgarishlarini 20-30 yilda payqay olsak, sintaktik sath o'zgarishini nafaqat bir inson umri davomida, balki bir necha avlodlar umri mobaynida ham payqash qiyin. Sintaktik sathning barqarorligi tilshunoslik fanining sintaktik hodisalar, jumladan, gap qurilishi yoki gap bo'laklarining ajratilish omili va asoslariga ham ta'sir ko'rsatib, hatto ilmiy talqinlarning ham barqaror bo'lishiga sabab bo'lgan. SHu bois tilshunoslik tarixiga nazar tashlasak, gap qurilishi talqinida ham, ma'lum ustivorlik, talqinlardagi umumiy turg'unlikni sezish qiyin emas.

Ishning kirish qismida bayon qilingan Ovro'po va SHarq, xususan, rus va o'zbek tilshunosliklarida gap bo'laklari talqinining tadrijiy rivoji ham buning yorqin dalili bo'la oladi. Asrimizning 20-30-yillarida shakllangan hozirgi o'zbek tilshunosligi o'z nazariyasi asosi uchun akademik SHaxmatov-Vinogradov-Peshkovskiylar ta'limotini qabul qilgan edi. Bu ta'limotning yuksak yakuniy cho'qqisi bo'lgan «Grammatika russkogo yazыka» asarida gapning bosh bo'laklarini sharhlab keluvchi bo'laklar gapning i k k i n c h i d a r a j a l i b o' l a k l a r i hisoblanadi. Bu qarashdan ko'rinib turibdiki, ikkinchi darajali bo'laklar gapning bosh bo'laklariga tobelangan bo'laklardir. To'ldiruvchi va hollarga ham gapning ikkinchi darajali bo'laklari deb qaralganligi sababli, ularning gapdagi bosh bo'laklardan biri bo'lgan kesimga nisbatan belgilanishi, shubhasiz.


O'zbek tilshunosligida to'ldiruvchiga berilgan ikki ta'rifni qiyoslaylik:
1.Gapdagi kesimga boshqaruv yo'li bilan birikib kelgan bo'lak to'ldiruvchi deyiladi.

2.Kesimning ob'ekt valentligini to'ldirib keluvchi kelishikli va ko'makchili morfologik shakllar orqali ro'yobga chiqadigan sintaktik shakl to'ldiruvchi sanaladi.

Bu ta'riflarning birinchisi 1952 yilda nashr etilgan o'rta maktab darsligidan olingan bo'lsa, ikkinchisi 1995 yil nashr qilingan "O'zbek tilining nazariy grammatikasi" qo'llanmasidan olingan. Har ikki ta'rifda ham to'ldiruvchining gapdagi bosh bo'laklardan biri hisoblangan kesimga nisbatan belgilanganligi ko'rinib turibdi. Bunday ta'riflarda "kesimning to'ldiruvchisi" bilan "gapning to'ldiruvchisi" tushunchalari sinonimlar sifatida qaralishi lozim. Darhaqiqat, to'ldiruvchi va hollar o'zbek tilshunosligida gapning kesimiga asoslanib aniqlab kelingan. Hatto kesimga bevosita bog'lanib funkcionallik, bilvosita bog'lanib esa nofunkcionallik kasb etgan to'ldiruvchilarning aniqlanishi ham kesimga asoslanuvchi ta'limotning samarasidir. Ushbu sintaktik tushunchalarning shakllanishini taqozo etgan holatning mohiyati shundaki, *"Men kitobni o'qib chiqqach, ustozim mendan kitobni qaytarib oldi"* gapida har ikkala kitobni so'z shakli funksional to'ldiruvchi sifatida qaralishi mumkin. Chunki bunday qarash bo'yicha *k i t o b n i* so'z shakli payt ergash gap kesimi deb talqin etiluvchi *o'qib chiqqach* hamda bosh gap kesimi sifatida qaraluvchi *q a y t a r i b o l d i* so'z shakliga tobelanib kelgan. Ammo aslida hozir "Kitobni o'qib chiqqach, ustozimga kitobni qaytarib berdim" gapida *k i t o b n i* so'z shakl faqat ikkinchi holatdagina to'ldiruvchi deb tan olinmoqda, birinchi holatda esa "Kitobni o'qib chiqqach" ravishdosh o'rami (oboroti) deb baholanganligi sababli undagi "*k i t o b n i*" so'z shaklini to'ldiruvchi deyish mumkin emas. Fanimizda dastlab bunday o'ramlarda gap bo'laklari umuman ajratilmas edi. Keyinchalik esa ularni nofunkcional to'ldiruvchi, nofunkcional hol kabi atamalar bilan ajratish boshlandi. Jumladan, nazariy grammatika mualliflari shunday yozadilar: **"Kesim vaziyatida kelolmagan morfologik shakl bilan sintagmatik munosabatda bo'lib, u bilan birgalikda bir sintaktik vaziyatni egallovchi tushum va vosita kelishiklaridagi hamda ko'makchi bilan birga kelgan morfologik shakl bog'liq (nofunkcional) to'ldiruvchi sanaladi"**.

To'ldiruvchi yoki hollarni funksional yohud nofunkcional deb baholash ularning gap qurilishidagi o'rnini to'liq ochib bera olmasligi mumkin. Chunki "*k i t o b n i* o'q i m o q" so'z birikmasi to'ldiruvchili fe'l so'z birikmasi hisoblanadi. Lekin shu so'z birikmasi tarkibidagi "*k i t o b n i*" so'z shakli, so'z birikmasi (aniqrog'i, uning hokim so'zi) gapda kesim vazifasida kelsa, bir xil birikmadagi hokim so'z boshqa gap bo'lagi vazifasida kelsa boshqacha baholanadi. Vaholanki, *K i t o b n i o'qigach q a y t a r i b b e r d i m,*" gapi tarkibida ham yana "*k i t o b n i o'q i m o q*" so'z birikmasining o'zi voqelanmoqda. Sintaksisdagi so'z birikmalari yoki ikkinchi darajali bo'laklar talqinlaridan bunday ziddiyatlarning kelib chiqish manbai, kirish qismda eslatilganidek, an'naviy rus tili grammatikasida ilgari surilgan nuqtai nazardir. Umuman, to'ldiruvchi va hollarni gapning kesimiga ko'ra aniqlashning deyarli yuz yildan beri davom etib kelayotgani hech kimga sir emas.

Lisoniy birliklarning kengayish imkoniyatlari deyilganda, shu birliklar ichki imkoniy(mazmun va vazifa rejasida) qobiliyatlarning nutqda muayyan tarzda namoyon bo'lib, boshqa lisoniy birliklar bilan xususiy aloqalarga kirisha olishi tushuniladi. Bunday kengayish natijasida lisoniy birlikda mujassamlangan imkoniyat nutqda oydinlashadi, muayyanlashadi. SHuning uchun lisoniy birliklarning kengayish imkoniyati lisoniy hodisa bo'lib, bu birlikning imkoniyatlari ham so'zlovchi xotirasidan o'rin oladi. Bu imkoniyatlarning voqelanishlari sof nutqiy yoki xususiy ko'rinish kasb etadi. Masalan, *yozmoq* fe'li ma'lum turdagi harakatni bajarish natijasida yozma ko'rinishdagi ma'lum bir manbaning (ob'ektning) yaratilishini ifodalaydi va shuning uchun bu fe'l-leksema lisoniy imkoniyat sifatida yozma manbalarni anglatuvchi *xat, kitob, hikoya, she'r, misra* kabi so'zlar bilan birikish qobiliyatiga egadir. Aynan shu lisoniy qobiliyat nutqda voqelanganda *xat yozmoq, kitob yozmoq, she'r yozmoq* kabi rang-barang nutqiy hodisalar - so'z birikmalari hosil bo'ladi. YOzmoq leksemasida yozma manba (yoki uning qismlari) nomlari bilan bog'lanish imkoniyat sifatida yashiringan bo'lsa, *xatni yozmoq, kitobni yozmoq* kabi nutqiy hosilalarda bu lisoniy imkoniyat muayyan nutqiy shaklda voqelanadi, aniqrog'i, imkoniyat hodisa sifatida yuzaga chiqadi. YOzmoq leksemasining yozma manbalarni ifodalovchi turli so'zlar bilan birikish imkoniyatlari doirasi keng bo'lsa ham xatni yozmoq hosilasida bunday imkoniyatlardan atigi bittasigina hodisalanagan. Xullas, har bir muayyan nutq sharoitida o'zaro sintagmatik munosabatlarga kirisha oladigan paradigmatic qatorlardan atigi bitta o'zigina boshqa qatordagi uzvlarning bittasi bilan muayyan sintagmatik munosabatga kirisha oladi. Buni to'rt uzvli ikki paradigmatic qator misolida ko'rsatish mumkin. Bu paradigmatic qatorlardagi har bir uzv ikkinchi qatordagi uzvlarning har biri bilan birikib 16 tur so'z birikmasini bera oladi:



14. Kitob
15. She'r
16. Bob

ТЎКИМОҚ

Bu so'z birikmalaridan faqat dastlabki paradigmada keltirilgan "yo z m o q" yozma manbalarni ifodalovchi so'zlar bilan kengaya olsa, qolganlari (bitmoq, ijod qilmoq, to'qimoq) o'ziga xos kengaytiruvchilarga ega bo'ladi.

Lisoniy birliklarning kengayish qobiliyati nafaqat ularning ma'noviy imkoniyatlari, balki grammatik shakllari bilan ham aloqadordir. Chunki faqat leksemalargina emas, grammatik shakllar ham kengayish imkoniyatini vujudga keltiradi. Jumladan, egalik qo'shimchalari o'zlari qo'shib kelgan ot yoki otlashgan so'z anglatgan narsa-buyum, voqea-hodisaning ma'lum shaxs va songa mansubligini ko'rsatish bilan birga belgili yoki belgisiz qaratqich kelishikli ot aniqlovchi yordamida kengaya oladi: Mening ismim. Salim... (uning)...-i/-si. kabi. Bundan ko'rinadiki, morfologik shakllarda ham kengayish imkoniyat sifatida mavjud va ularni "oldinga ishora qiluvchi vositalar" (ya'ni, egalik, shaxs, son, nisbat qo'shimchalari) va "keyingi ishora qiluvchi vositalar" (kelishik, ravishdosh, -dagi,-niki kabilar) sifatida alohida tadqiq etish ham foydadan xoli bo'lmaydi.

Morfologik shakllardagi kengayish singari "Gapning eng kichik qurilish qolipi" ham kengayish jarayonida kesimlik kategoriyasi ko'rsatkichlariga tayanadi. Bu haqda maxsus bo'limda to'xtalinsa-da, shuni alohida qayd qilish kerakki, [Wp] ning nutqiy voqelanishlaridan biri bo'lgan quyidagi "*Tadqiqotchiman*" gapi ega vazifasida kelgan kishilik olmoshi bilan kengayishi mumkin. Ammo bunda «tadqiqotchi» leksemasini gap sifatida shakllantiruvchi grammatik formaning o'rnini bevosita sezilib turadi.

Nutqda kengayish imkoniyatlari, qobiliyatlari asosida muayyan shakl va ko'rinishlarda voqelanuvchi lisoniy birliklarni k e n g a y t i r i l u v c h i yoki k e n g a y u v c h i l a r deb ataymiz. Kengayuvchi lisoniy vosita leksema (so'z), morfologik shakl yoki gap mavqeida bo'la oladi va shu sababli ularning imkoniyati leksemaning (so'zning), morfologik shaklning (formaning) va gapning kengayishi sifatida baholanadi.

Leksema (so'z), grammatik shakl, gap kengayish imkoniyati va qobiliyatlarini nutqda voqelantiruvchi va ularga tobelanuvchi nutqiy birliklar kengaytiruvchilar deb yuritiladi. Kengaytiruvchilar muayyan leksema (so'z)ga, morfologik shaklga yoki umuman gapga xos bo'lganligi sababli, ularni: a) so'z (leksema) kengaytiruvchilari; b) morfologik shakl kengaytiruvchilari; v) gap kengaytiruvchilari kabi 3 turga ajratish mumkin. Ushbu ishda bu kengaytiruvchilardan so'z kengaytiruvchilari va gap kengaytiruvchilarini gap qurilishining yangicha talqin etuvchi omillari sifatida ko'rib o'tiladi. "So'z kengaytiruvchilari" (So'z valentligi) atamasini tor ma'noda tushunmaslik kerak.

So'zga(o'zakka) qo'shimcha qo'shish orqali kengayishni hamda so'zga boshqa birikishidan ham so'z kengaytiruvchiligi anglashilishini professor I.Qo'chqortoev asoslagan edi. Mazkur **"so'z kengaytiruvchisi"** atamasi shu ikkinchi ma'noda qo'llanadi.

Gap bo'laklari muammosi ichida so'z bog'lashuvi(valentligi) bilan uzviy aloqada bo'lgan "so'z kengaytiruvchilari" tushunchasining mohiyatini ochish ushbu bo'limimiz oldiga qo'yilgan asosiy maqsadlardan biridir.

So'z bog'lashuvi (valentlik nazariyasi) turkiyshunoslikda deyarli 40 yildan beri (S.N.Ivanov boshlab bergan edi), o'zbek tilshunosligida esa 20 yildan buyon (professor I.Qo'chqortoev boshlab bergan edi) o'rganilib kelinmoqda. R.Rasulov, I.Qo'chqortoev, SH.Rahmatullaevlarning tadqiqotlari ham shu kabi ishlar sirasiga kiradi.

So'z kengaytiruvchilari so'zga ergashgan, tobelashgan qismlar sifatida uning oldidan joy oladi. Bunda ham turkiy tillarning sintaktik o'rinlashish qonuniyati, ya'ni oldingi so'zning tobeligi, keyingi so'zning hokimligi saqlanadi.

"So'z kengaytiruvchilari" deyilganda so'zning ma'noviy bog'lashuv a'zolari (semantik valentlik aktantlari) tushuniladi. Har bir so'z(leksema) o'ziga xos bog'lashuvga ega bo'lib, o'zining ichki ma'noviy belgilari asosida u yoki bu turdagi so'zlar va grammatik shakllar bilan kengaytirilishni yohud izohlanishni, aniqlanishni talab etadi. So'z valetligining gap qurilishiga tadbiqui masalasi fransuz tilshunosi L.Тенбер ishlarida yorqin aks etdi. S.D.Kasnel'son tomonidan 1936 yilda tilshunoslikka "valentlik" tushunchasi olib kirilgan edi. So'z bog'lashuvi so'zning ma'nosi tomonidan belgilanishi va nutqda voqelanishi sababli tilshunoslikda so'zning ma'noviy hamda sintaktik bog'lashuvi (semantik va sintaktik valentlik) ancha munozaralarga sabab bo'ldi. Mazkur ilmiy izlanish ham sintaktik bog'lashuvni lisoniy (ma'noviy) bog'lashuvning nutqdagi voqelanishidir deb baholovchi talqinlarga tayanadi. Ma'noviy bog'lashuvda so'z o'zining lug'aviy ma'nosi imkoniyatlarini ko'rsatish uchun so'z shakllarni o'ziga biriktira olish qobiliyatlarini namoyon etadi. Bu xususiyatni muallim, boy, yaxshi, yozdi kabi so'zlar misolida aniqlashtirmoqchi bo'lsak, ularning quyidagi tur so'zlar bilan kengayish imkoniyatlarini kuzatishimiz mumkin:

1. Sifat yoki sifatlovchi so'zlar bilan: yaxshi muallim, qobiliyatli muallim, katta muallim, mohir muallim.
2. Miqdoriy so'zlar bilan: ikki muallim, uchtdan muallim, to'rtala muallim.
3. Fan, o'rin-joy, vaqt belgisi ma'nolarini bildiruvchi so'zlar bilan: adabiyot muallimi, qishloq muallimi. Hozirgi davr muallimi...
4. SHu kasbdagi shaxsga aloqador bo'lgan narsa-buyum, belgi-xususiyatni ifodalovchi so'zlar bilan: muallim kitobi, muallim xonasi, muallim turmush tarzi, shuningdek, muallim san'atkor, muallim yozdi, muallim

xursand bo'ldi, muallim jamoatchi kabi. Bu kabi muallim so'zidan oldin va keyin kela oladigan so'zlar bilan birika olish muallim so'zining ma'noviy bog'lashuvi (semantik valentligi)dir. Yaxshi so'zi o'zidan keyin kelgan ot va fe'llar bilan birika oladi: yaxshi bola, yaxshi kitob, yaxshi o'qimoq, yaxshi eshitdim. Qiyoslash ma'nosini yuzaga chiqarganda bu so'z o'zidan oldin chiqish kelishigidagi ot yoki olmosh bilan kengayishi mumkin: olmadan yaxshi, bundan yaxshi kabi. Endi misol uchun boy leksemasini olaylik. O'zbek tilining izohli lug'atida "boy" so'zining uch asosiy ma'nosi ko'rsatiladi:

1. Kishi kuchidan foydalanish hisobiga boylik, dunyo orttirgan, badavlat, davlatmand. Boy odam.
2. Iqtisodiy jihatdan mustaxkam hech narsadan kamchiligi va muhtojligi yo'q, hamma narsadan badastir, to'kis, badavlat.
3. Tarkibida, ixtiyorida, bag'rida kerakli va foydali narsalar ko'p, mo'l. Aslida bu erda uch ma'no haqida emas, ikki ma'no turi to'g'risida gapirish o'rirlidir;

1. Ma'lum ijtimoiy mavqe xususiyatiga ega bo'lgan shaxs.
2. Tarkibida biror narsaning, moddaning ko'pligini ifodalovchi sifat. Birinchi ma'nodagi "boy" leksemasining bog'lashuvi muallim so'zi bog'lashuvidan deyarli farq qilmaydi. Ikkinchi ma'noda esa narsaning, moddaning nomi + ga + boy: molga boy, temirga boy, nonga boy, mevaga boy, hamma narsaga boy va hokazo tarzida bo'ladi. Natijali faol harakatni ifodalaydigan "yozdi" fe'l-leksemasining bog'lashuvi yuqoridagi so'zlar valengligidan ko'ra kengroqdir. Odatda tilshunosligimizda bunday so'zlarning quyidagi tur bog'lashuvlari qayd etiladi:


- 1) bajaruvchi (agens): Men yozdim. Salim yozdi.
- 2) manba (ob'ekt): Men xatni yozdim.
- 3) payt (temporalhnosth): Bugun Salim xatni yozdi,
- 4) o'rin (lokalis): Bugun Salim xatni maktabda yozdi.
- 5) xolat: Salim bugun maktabda xatni tez yozdi.
- 6) usul, vosita: Salim bugun maktabda xatni qalam bilan tez yozdi.
- 7) sabab-maqсад: Salim bugun maktabda qasddan bu xatni qalam bilan tez yozdi.

Ko'rinib turibdiki, qanday turdagi so'zlar bilan birika olish to'laligicha so'zning lug'aviy ma'nosiga bog'liq. So'z bog'lashuvlarida so'zning lug'aviy ma'nosini oydinlashtiruvchi ashyolar aks etadi. So'z ma'noviy bog'lashuvining nutqda voqelanganligi so'z ma'nosiga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, Salim maktabda o'qiydi va Salim maktabda bu kitobni o'qiydi gaplaridagi birinchi holatda «o'qimoq» fe'li o'timsiz ma'noda bo'lib, bajaruvchining nima bilan shug'ullanishini (holatini) ifodalagan bo'lsa, ikkinchi gapda o'timlilik kasb etib, faol harakatni ifodalamoqda. Bu fe'lning harakat yoki xolat ma'nosi manba bog'lashuvining nutqda voqelanlanmaganligi (kitobni o'qiydi) va nutkda

voqelanmaganligi bilan bog'liq. Turli so'zlar o'z ma'nolari zaminida har xil kengaytiruvchilar bo'lishini talab etadi. Xususan, o'timli fe'llar tushum kelishigi shaklidagi vositasiz to'ldiruvchi bo'lib keladigan bo'lakni talab qilsa, harakat fe'llari jo'nalish yoki chiqish kelishigidagi harakatning manbai, boshlanish nuqtasi yoki chegarasini ifodalovchi so'z-shakllarni taqozo etadi. Maqomat(istiqomat) fe'llari esa o'rin-payt kelishigidagi so'z - shakl bilan kengaya oladi. Ma'lumki, tilshunoslikda tushum kelishigi bilan shakllangan vositasiz to'ldiruvchining o'rni tadqiq etilgan va ba'zan belgisiz vositasiz to'ldiruvchining gapdagi bosh bo'lakka tenglashtirilishi ham kuzatiladi. A.A. Salkalamanidze esa (murur)harakat fe'llari huzurida kelgan o'rin holini o'timli fe'llarga tobelangan vositasiz to'ldiruvchi bilan teng holatda ko'rib, quyidagi xulosani chiqaradi:

1.E.Kurilovich fikrlariga zid ravishda makon kelishiklari dastlabki vazifasida (hol ma'nosida) boshqaruvchi shakllar sifatida faoliyat ko'rsatadi va fe'l leksik ma'nosini ochuvchi valentliklarining zarur elementiga aylanadi.

2. Harakat va o'rin-joy fe'llarida hol (mustaqil ma'no bilan bog'lanuvchi shakl) hamda to'ldiruvchi (boshqariluvchi shakl) orasidagi qarama-qarshilik yo'qoladi. Bu fe'llarda to'ldiruvchi hol ma'nolariga ega bo'ladi. So'zning ma'noviy kengaytiruvchisi vazifasida qanday turdagi so'zlar kelishining zarurligi va nozarurligi faqat bir omil so'zning lug'aviy ma'nosi bilangina belgilanadi. Murur fe'llari harakat chegaralarining belgilanishini talab qiladi. Istiqomat(holat) fe'llari o'rin-joyini, faol harakat esa manbani o'ziga "chaqiradi". SHuning uchun so'zning ma'no kengaytiruvchilarini zaruriy (obligator) va nozaruriy (fakultativ) kabi ikki turga ajratish odat tusiga kirgan. So'z kengaytiruvchilarini zaruriy va nozaruriy turlarga ajratish shartli, albatta. Lekin so'z kengaytiruvchilarining barchasi ham so'z ma'nosiga nisbatan bir xil mavqelarni egallamasliklari mumkin. Misol uchun "yozmoq" fe'li birinchi navbatda harakatning kim tomonidan bajarilganligini, ikkinchi o'rinda nima ustida bajarilganligini, keyin esa qachon? qaerda? qanday usulda? Nima sababdan? nima maqsadda? bajarilganligini ravshanlashtirishga harakat qiladi. SHu sababli bu fe'lga aloqador kengaytiruvchilar quyidagi darajalanish qatorini tashkil etadi:




SHuningdek, zaruriylik yoki nozaruriylik fe'llardan tashqari boshqa so'z turkumlari, xususan, o'qituvchi, boy, ega kabi so'zlar

kengaytiruvchilari orasida ham uchraydi. O'qituvchi so'zining qanday? so'rog'iga javob bo'luvchi kengaytiruvchilari (yaxshi o'qituvchi, adabiyot o'qituvchisi) kimning? so'rog'iga javob bo'luvchi (o'qituvchi kitobi, o'qituvchi gapi) kengaytiruvchilaridan ko'ra zaruriyrokdir. "Boy", "ega" so'zlarining zaruriy kengaytiruvchilari nimaga? so'rog'iga javob bo'lsa, kim? nima? so'rog'iga javob bo'luvchilari nozaruriy kengaytiruvchi bo'lib hisoblanadi: Aqlga boy kishi. Predmet manosidagi so'zlarning zaruriy kengaytiruvchilari qanday? qachon? so'rog'iga javob bo'lib kelsa, kimi? nimasi? so'roqlariga javob bo'luvchilari nozaruriylik kasb etishlari mumkin. So'zlarni zaruriy yoki nozaruriy turlarga ajratish yohud, umuman, so'z kengaytiruvchilari (leksemalarning ma'noviy bog'lashuvi) haqida gap borganda tahlil doirasiga ko'proq fe'l so'z turkumi jalb etilmokda. Sababi fe'llarda bog'lashuvlik hodisasi keng ko'lamda shakllangan, ammo bu xususiyat fe'llar uchungina xos degani emas. Chunki tilning ma'lum sathidagi biror birlik, muayyan xususiyatga ega bo'lar ekan, bu xususiyat shu sathning boshqa birliklariga ham u yoki bu darajada aloqador bo'ladi.

Tilshunoslikda boshqaruv bog'lashuvdan oldinroq tadqiq etila boshlangan, shuningdek, boshqaruv dastlab fe'lning xususiyati deb tan olingan edi. Keyingi tadqiqotlar ko'rsatdiki, boshqarish nafaqat fe'llarga, balki ot, ravish, son kabi turkum so'zlar uchun ham taalluqli ekan. Ot (keng manoda) bog'lashuvida "oldingi" kengaytiruvchilar "keyingi" kengaytiruvchilardan farqlanadi. "Oldingi"lar zaruriy, "keyingi"lar esa nozaruriy hisoblanadi. Bu holat tasodifiy emas, chunki so'z ma'noviy bog'lashuvining nutqda voqelashuvi sintaktik " hokimlik-tobelik" (keng manodagi "aniqlovchi-aniqlanmish") bilan bog'liqdir.

Gap bog'lashuvini voqelantiruvchi so'z hokim, kengaytiruvchi so'zlar esa tobelik holatida keladi. Masalan, **yo**z d i m nimani? (xatni) qachon? (bugun) qaerda? (maktabda) -kim uchun (akamga) nima bilan? yoki qanday? (qalam bilan). Bu erdagi xatni, bugun, maktabda, akamga, qalam bilan so'zlari (tobe so'zlar) aktantlardir.



Ot bog'lashuvida otdan (keng ma'noda) oldin kelgan so'zlar keyingi so'zga tobelanadi: katta boy (qanday boy?), molga boy (nimaga boy?) birikmalarida "boy" hokim, oldingilari esa tobe sanaladi. SHu sababli ot bog'lashuvida oldingi kengaytiruvchilarni so'z kengaytiruvchilari sirasiga kiritish to'g'riroqdir, chunki bunda keyingi oldingina emas, oldingi keyingining kengaytiruvchisi mavqeida

bo'ladi. Mol - dunyoga boy kishining ko'zi to'q bo'ladi gapida m o l d u n y o g a juft so'zi boy so'zining kengaytiruvchisi ekanligiga shubha yo'q, lekin b o y so'zi kishi so'zining kengaytiruvchisimi yoki kishi so'zi boy so'zining kengaytiruvchisimi? Bu munozaralidir. Turkiy tillar umumiy qonuniyatiga ko'ra b o y k i s h i birikmasida "kishi" boy so'ziga nisbatan hokim, boy tobedir. SHu bilan birga turkiy so'z birikmalarda bosh so'z bilan tobe so'z munosabatlarining ikki tomonlamaligi, ya'ni so'zning xokimligini ifodalovchi ma'noviy, morfologik va sintaktik omillarga so'zning tobeligini ta'minlovchi semantik, morfologik, sintaktik vositalar mos kelishini hisobga olsak, mol dunyoga boy kishi birikmasida nafaqat kishi so'zi boy so'zi kengaytiruvchisining tobelanishini, balki o'z navbatida b o y sifat leksemasining ham o'zidan keyingi so'zni hokim mavqega ifoda etayotganligini ko'ramiz. Bunda boy kishi birikmasidagi keyingi so'zning zaruriy bog'lashuvi oldingi so'zning nozaruriy bog'lashuvi bilan uyg'unlashadi. SHunday bo'lsa ham, biz «so'z kengaytiruvchilari» yoki «so'z ma'noviy bog'lashuvining voqelantiruvchilari» atamaları ostida so'zning o'zidan oldingi kengaytiruvchilarini nazarda tutamiz. CHunki so'z birikmadaridagi tobe-hokimlik munosabatlari masalasi uzil-kesil hal etilmas ekan, bu turkiyshunoslikda rasm bo'lib qolgan "keyingisi-hokim", oldingisi tobe talqiniga amal qilaveramiz.

YUqoridagi izohlardan ko'rinib turibdiki, "so'z kengaytiruvchilari" tushunchasi "so'z birikmasi" «hokim so'z», «tobe so'z» tushunchalari bilan to'qnashadi. Bu tasodifiy emas, chunki so'zning ma'noviy bog'lashuvi (semantik valentlik) nutkda sintaktik bog'lashuvi(sintaktik valentlik) shaklida voqelanadi. So'zlarning sintaktik bog'lashuvi esa so'z birikmalarida gavdalanadi. Tilshunosligimizda qayd etilgan quyidagi birikmalar mustaqil so'z birikmalari sanaladi: xatni yozmoq, akamga yozmoq, bugun yozmoq, maktabda yozmoq, qalam bilan yozmoq, tez yozmoq kabilar, hozirgi o'zbek tilshunosligining talqiniga ko'ra yuqoridagi oltita so'z birikmasini o'z ichiga olgan gap quyidagicha nutqiy birikmalarga ajratiladi: xatni + yozdim, akamga + yozdim, maktabda + yozdim, qalam bilan + yozdim, tez + yozdim. Nutqiy iqtisod qonuni asosida birikmalar jamlanishidan hosil bo'lgan bu gapdagi "y o z d i" ni qavsdan tashqariga chiqarsak, shunday holatga duch kelamiz: (Bugun + xatni + akamga + maktabda + qalam bilan tez) yozdim. Haqiqatan, tafakkur jarayoni shundaymi? CHizma bugun, xatni, akamga, maktabda kabi so'z shakllarni o'zaro bir-biriga qo'shilgan tarzda ko'rsatmoqda. Aslida ular qo'shilganmi? Bizningcha, *Bugun xatni akamga maktabda qalam bilan tez yozdim* gapining tafakkur jarayoni (gapning shakllanish asosi) boshqacha bo'lsa kerak. Uni quyidagicha tasavvur etishimiz mumkin:

YOZDIM

Bugun yozdim.

Bugun xatni yozdim.

Bugun xatni akamga yozdim.
Bugun xatni akamga maktabda yozdim.
Bugun xatni akamga maktabda qalam bilan yozdim.
Bugun xatni akamga maktabda qalam bilan tez yozdim.

CHizmadan ko'rinib turibdiki, gapning kengayishi birikmalarni yuzaga keltirish emas, balki "yozmoq" so'zi bog'lashuv a'zolarining birin-ketin nutqqa kiritilishi asosida sodir bo'ladi. Bu fikrni psixolingvistlarning xulosalari ham tasdiqlaydi. Nutqiy hosilalar bo'lgan gaplarning aktual(dolzarb) bo'linish natijalari ham yuqoridagi hukm to'g'riligini ko'rsatadi. Ma'lumki, gapda mujassamlangan axborot o'zining nutqiy qiymati(ahamiyati) jihatidan tema va rema kabi ikki asosiy qismga ajraladi hamda gapdagi barcha so'zlar (bo'laklar) tema va rema qismlar atrofida birlashadi. E'tibor bering: an'anaviy sintaktik tahlilida ham gap ega tarkibi, kesim tarkibi va grammatik jihatdan bog'lanmagan bo'laklar kabi uch turga ajratilib, ikki bosh bo'lak - ega va kesim atrofida birlashtiriladi. Bularning barchasi nutqda shakllanuvchi gaplarning so'z birikmalarining bir-biriga qo'shish asosida emas, balki ma'lum markaziy bo'laklarni kengaytirish asosida vujudga kelishi haqidagi fikrni tasdiqlaydi. Xuddi shu fikrni fransuz tilshunosi L.Ten'erning sintaktik tahlilida ham uchratishimiz mumkin. Ushbu tahlil gapni bo'laklarga ajratishda so'z bog'lashuvi nuqtai nazariga tayanadi. Bunda gap bo'laklariga so'z ma'noviy bog'lashuvining sintaktik voqelanishi jihatidan qaralib, ular muayyan bog'lashuv markazlari asosida ajratiladi. Hokim va tobe bo'laklar o'zaro pog'onali tarzda joylashgan bo'lib, ma'lum bog'lashuv markazi bo'lgan so'zning o'z tobelari bilan gap qurilishida bir o'rinni egallashi aniqlanadi.

SHunday qilib, gap bo'laklari gap tarkibida necha so'z bo'lishi bilan emas, gapda nechta mustaqil bog'lashuv markazi borligi bilan belgilanadi. So'z bog'lashuvi haqidagi ta'limotning kurtaklari an'anaviy tilshunosligimizda ham mavjud. Xususan, ko'pincha aniqlovchilar o'z aniqlanmishidan mustaqil gap bo'lagi sifatida ajratilmaydi (masalan, ba'zi qaratqichli va murakkab aniqlovchilar), ular o'zi ergashib kelgan hokim bo'lak doirasida ko'riladi. Masalan, *Bepoyon dalalarda oltin boshhoqlar jilvalanadi* gapida bepoyon, oltin kabi aniqlovchilar holning aniqlovchisi(bepoyon), eganing" aniqlovchisi (oltin) deb qaraladiki, bizning tahlilimiz shunday talqin kurtaklarini mantiqiy nihoyasiga etkazishga qaratilgan. Gap tarkibidagi bog'lashuv markazini gap qurilishiga bevosita aloqador bo'lmagan kengayish sifatida tahlil etish so'z kengaytiruvchilari tushunchasining shakllanishiga olib keldi. So'z kengaytiruvchilari so'z ma'noviy valentlik(bog'lashuv) imkoniyatlarining nutqdagi voqelanishi bo'lib, ular gapning sintaktik qurilishida mustaqil o'rin egallamaydi va gap tarkibiga o'zining markazi orqali bog'lanadi. Boshqacha aytganda, so'z kengaytiruvchilari o'z kengayuvchi

so'zi bilangina bog'liq bo'lib, gap qurilishida hal qiluvchi ahamiyatga ega emas. Ular gap tarkibidagi so'zlarning markaziy bo'lakka(muayyan so'zga) ma'noviy tortilishini aks ettiradi, shu asosda uning mohiyati belgilanadi.

So'z kengaytiruvchilari so'zning semantik valentligi bilan uzviy aloqada bo'lganligi sababli hamrohlari yoki soylari sifatida qaraladi. Hokim so'z(semantik valentlik) imkoniyati asosida kengaytiriluvchi so'z qo'llangan barcha holatlarda(o'rinlarda) uning so'z kengaytiruvchilari hamrohlar sifatida so'z bilan birga kela oladi.


Gapdagi bo'laklar masalasiga (WPM)ning valentligi asosida yondashish ularning mohiyatan ikki turini farqlash imkonini berar ekan, yuqorida tavsiflangan so'z kengaytiruvchilari gap bo'laklari bo'la olmasligi shubhasizdir.

"So'z kengaytiruvchilari" tushunchasi tilshunoslik uchun yangi bo'lmasa-da, "gap kengaytiruvchilari" fanimizdagi yangi tushunchalardan biri hisoblanadi. Aytish lozimki, "gap kengaytiruvchilari" atamasining asl mohiyati Ovrupo tilshunosligidagi "so'zning mustaqil kengaytiruvchilari" yoki rus va o'zbek tilshunosligida tan olinayotgan so'nggi davr mahsuli "determinantlar" tushunchalaridan keskin farq qiladi, chunki bizning "gap kengaytiruvchilarini gapning eng kichik qurish qolipi (GKK) va uning valentligi (gap valentligi =gap k+k so'z) haqidagi ta'limotga asoslanadi. Gapning eng kichik qurilish qolipi va u bilan bog'liq bo'lgan GQqning kengayishi tushunchalari nisbatan yangi tushunchalardir". Hozirgi davrning peshqadam sintaktik nazariyalarini o'zida mujassamlashtirgan, gap qurilishiga doir semantik-struktur sxemalarni targ'ib etuvchi rus tili grammatikasida ham an'anaviy gap bo'laklaridan faqat bosh bo'laklar e'tirof etilayotgani, gap kichik qurilish qolipining gap sintaksisining uzviy tadqiqotlaridan biri sifatida ajratilganligi sintaktik talqinlarni tobora chuqurroq o'rganishga kirishilayotganligidan dalolat beradi. Rus tilshunosi Z.D. Popova "Sintaksisni gap bo'laklarisiz o'rganish mumkinmi?" nomli maqolasida V.A Beloshapkovaning: «Gapning semantik-struktur sxemalari haqidagi yangi tushunchalar an'anaviy gap bo'laklarini inkor etmaydi, balki ularning struktur qurilishi uchun yangi asoslar beradi»- degan fikrini keltirgan edi. Darhaqiqat, o'zbek tilshunosligiga gap bo'laklari masalalarini ham sistem nazariy yo'nalishda, eng kichik gap markazini ko'p bosqichli valentlik nuqtai nazaridan tadqiq etish, ramzli gap va uning gap kengaytiruvchilik xususiyatlar munosabatlari asosida talqin qilishga bo'lgan ehtiyojlarni keltirib chiqarmoqda.

Gap kengaytiruvchilari deyilganda, gapga tashqaridan qandaydir yangi bir narsa kiritilayotgani emas, balki an'anaviy gap bo'lagining ma'lum turlari gapda tayanch(konstruktiv) mavqeda kelayotganligi tushuniladi. GQq ning kengayishiga sistemaviy yondashuv, ishimizda(tajriba sifatida) to'ldiruvchi va hol xususidagi ayrim munozaralarga chek qo'yish maqsadida yuzaga chiqmokda. L.Ten'erning

sintaktik tahlil usullari mantiqan nihoyasiga etkazish, ya'ni gapda markaz(yadro) va qurshovni farqlash, so'z bog'lashuvi(valentligi) qoidasi taqdimotini nutqiy hosila bo'lgan gap qurilishiga izchillik bilan tadbiq qilish kabilar turkiyshunoslarga gapning eng kichik qurilish qolipini ajratish va shu qolipga tayangan holda gapning sintaktik tahliliga yangicha munosabatlar asosida yondashish imkoniyatini beradi. GQq atov(nominativ) birlikka kesimlik kategoriyasi ko'rsatkichlari qo'shilgan shakldir. Bu qolip o'zbek tilshunoslari tomonidan (ABk) ramzi bilan ko'rsatilmokda. GQq deyilganda, voqealanishi(nutqi) alohida bir sodda gap bo'lib kela oladagan qurilma tushuniladi. Sistemaviy tilshunoslik namoyandalarining ishlarida bu qurilmaning shakli(andazasi) uch xil tarzda ko'rsatib kelinmoqda: 1. Atov birlik+kesimlik ko'rsatkichlari. 2. (ABKk). 3. (WPm). Bu ramz va uning mohiyati o'zbek tilshunosligida to'la ommalashmaganligi, shuningdek, tilshunosligimizda til-nutq sathlarini farqlashga kirishilayotganligi, nutqiy hosilalar zaminidagi lisoniy umumiyliklarni farqlash asosida ish ko'radigan sistemaviy yondashishning endigina shakllanayotganligini hisobga olgan holda (WPm) ramzi va uning mohiyatini sharhlab o'tishga to'g'ri keladi. CHunki bu ramzning mohiyat-mazmuni ishning tayanch nuqtalaridan bo'lib hisoblanadi.

(WPm) ramzli qurilma (qolip) tilning ikki sathi birliklarining o'zaro birlashuvidan hosil bo'ladi. /W/ belgisi ostida tilning atash sathi yotadi. Atov birliklari so'z yoki so'z birikmalarini o'z ichiga oladi. Bu ramz nutqda shunday ko'rinishlarda namoyon bo'ladi: 1.Sodda tub yoki yasama so'zlar sifatida: o'qtuvchi +..., kel + ..., boshla +, 2. Qo'shma,juft va takror so'zlar shaklida: qo'lqop + ..., otashkurak + ..., imzo chek ..., ket + ... qol + 3. Iboralar tarzida: ko'ngli to'q + ,,., bag'ri keng + ..., ko'kka ko'tar + ..., erga ur +.... 4. So'z birikmalari orqali: mohir o'qituvchi, molga boy, arizaga qo'l qo'y kabi. GKkdagi /W/ ramzi qolipning lug'aviy ma'no tashuvchi qismini anglatsa, /Rm/ morfologik kesimlik kategoriyasi ko'rsatkichlarining umumiy ramzidir. Kesimlik kategoriyasi deyilganda gapni predikativ birlik sifatida shakllantiruvchi umumiy morfologik kategoriya tushuniladi. Gap kesimining morfologik shakllari xilma-xil bo'lganligi sababli kesimlik kategoriyasining morfologik shakllari ham turli xillik kasb etadi (ular hozir maxsus tadqiqot ob'ekti sifatida tekshirilmoqda). Bu o'rinda ot(keng ma'noda) va fe'l-kesimlar morfologik shakllarining o'zaro keskin farqlanishini alohida uqtirib o'tmoq kerak. Bunga quyidagi paradigmani misol sifatida keltiramiz.



Bu paradigmadagi gaplarda kesimlik -man (1), edim (2), -aman (3), - dim (4) shakllari bilan ifodalangan. Bu qatordagi gaplar o'ziga xos qurilishi bilan emas, balki kesimning ot (1;2), fe'l (3;4)lar bilan ifodalanganligi, kesimning hozirgi-kelasi zamon aniqlik maylida (1;3) yohud shu maylning aniq o'tgan zamoni (2;4) morfologik vositalarda kelishi kabilar bilan farqlanadi.

Bu morfologik kategoriyaning umumiy ma'nosi "Tasdiq/inkor + mayl+ zamon + shaxs/son" ma'nolarining butunligidan, barqaror yig'indisidan hosil bo'ladi. Umuman, (WpM) ramzi bilan berilgan GQqda atov va kesimlik kategoriyasi ma'nolari lisoniy ma'nolar tarzida ifodalangan bo'ladi.

(WpM) ramzining ifodalanishi mohiyatan lisoniy bo'lib, falsafiy tabiatiga ko'ra umumiylik (mohiyat, imkoniyat) sifatida mavjud bo'ladi, nutqda esa xususiylik (hodisa, voqea, oqibat) tarzida sodda gaplar orqali yuzaga chiqadi. Demak, (WpM) lisoniy bosqich birligi bo'lib, bevosita kuzatishda berilgan gaplar esa shu qolipning hosilalari hisoblanadi. [WpM] nutqda sodda gapning «o'zagi»ni, asosini tashkil etadi va ixcham ifodalanishda(so'z kengaytiruvchilari bilan kelmagan holatlarda) gapning kesimiga to'g'ri keladi. GQq tushunchasi gap kengaytiruvchilarining mohiyatini aniqlash uchun zamindir. Gap k e n g a y t i r u v c h i l a r i gap tarkibidagi shunday zaruriy bo'laklarki, ular gapning umumiy lisoniy ma'nosi bilan uzviy bog'langan bo'ladi. Biz [WpM] tarkibidagi /W/ning turli turkumdagi so'zlar bilan ifodalanishi haqida gapirib o'tdik. O'z-o'zidan tushuniladiki, har bir so'z turkumining, xususan, har bir so'zning kengaytiruvchilari o'ziga xos bo'lishi mumkin.

So'z gapning qaysi o'rnida kelmasin, o'z kengaytiruvchilarini birga ergashtirib kelish xususiyatiga ega. Masalan, o'qituvchi so'zi zaruriy kengaytiruvchilar oladi: *Ikki mohir adabiyot o'qituvchisi*. Bu erdagi ikki, mohir, adabiyot so'zlari o'qituvchi so'zi uchun zaruriy kengaytiruvchilar bo'lib, bular o'qituvchi so'ziga uning qaysi bo'lak bo'lishidan qat'i nazar ergashib kelaveradi. Dalillar sifatida o'qituvchi so'zining ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol hamda undalma bo'lib kelgan holatlarini kuzatib ko'raylik:

1. Ikki mohir adabiyot o'qituvchisi tanlov g'olibi bo'ldi.
2. Tanlov g'oliblari ikki mohir adabiyot o'qituvchisi edi.
3. Ikki mohir adabiyot o'qituvchisini tanlovda qatnashish uchun Toshkentga yubordik.
4. Bularga ikki mohir adabiyot o'qituvchisining mehnati ko'proq singgan.
5. Ikki mohir adabiyot o'qituvchisi, biz sizni umid bilan tanlovga yo'llayapmiz.

Ko'rinib turibdiki, o'qituvchi so'zining qaysi bo'lak bo'lib kelishi uning zaruriy kengaytiruvchilrni qabul qilishiga ta'sir ko'rsatmaydi.

So'z kengaytiruvchilarining gap(nutq) tarkibida shakllanishi ularning gap kengaytiruvchiligiga bo'lgan munosabatini ham aniqlashtirilishini talab etadi.

Gap kengaytiruvchilari soʻz kengaytiruvchilaridan farqli oʻlaroq gapdagi muayyan soʻzga emas, balki gap asosiga aloqadordir. Aniqrogʻi, gap kengaytiruvchilari aslida [WPm] tarkibidagi umumiy maʼnolarning nutkda xususiylikka aylanishi bilan bogʻliqdir. [WPm] ga kiruvchi umumiy (umumlashma) lisoniy maʼnolar esa, yuqorida eslatilganidek, atovlik va kesimlik (tasdiq/inkor, mayl/zamon, shaxs/son) maʼnolari birikuvidan iboratdir. Bu maʼnolar oʻzbek tilining lisoniy bosqichida gap tushunchasiga bogʻlanadi va qanday soʻz gap vazifasida kelmasin, u atovlilik va kesimlilikning maʼnoviy koʻrsatkichlariga ega boʻlishi shartdir. SHu maʼnolardan birortasi qoʻllanmasa, gapning mazmuniy mohiyati toʻliqsizlanadi. Misol uchun, *Oʻqituvchiman* gapini olib koʻraylik. Bu gapdagi oʻqituvchi oʻz lugʻaviy maʼnosi bilan atash sathini muayyanlashtirib kelgan boʻlsa, gap tarkibidagi tasdiq/inkor (Oʻqituvchiman/Oʻqituvchi emasman), zamon (Oʻqituvchiman/Oʻqituvchi edim), shaxs-son (Oʻqituvchiman /Oʻqituvchisan (-miz) kabi kesimlik kategoriyasi shakllari va maʼnolarining alohida soʻzlar(boʻlaklar) bilan aniqlashtirilishi ushbu gapning kengayish imkoniyatlaridir. Oʻqituvchiman gapini biz qisqa tarzda imkoniy gap deyishga haqlimiz. CHunki unda (WRm) ning shakllanish qobiliyatlari mavjud. SHu asosda uni kengaytiradigan boʻlsak, dastlab gap shaxs-son maʼnosini oydinlashtiruvchi egaga extiyoj sezadi:

Men oʻqituvchiman.

Ikkinchi bosqichda zamon maʼnosining aniqlashtirishi zarur boʻladi:


Men hozir oʻqituvchiman.

SHundan soʻng (payt maʼnosi makon bilan uzviy aloqador boʻlganligi sababli) oʻrin maʼnoli kengaytiruvchiga zarurat seziladi: *Men hozir maktabda oʻqituvchiman.* [Pm] tarkibida boʻlgan va umumiy modallik tizimiga xizmat qiladigan tasdiq/inkor va mayl maʼnolari ham turli vositalar bilan (modal soʻzlar, kirish boʻlaklar kabi) aniqlashtirilishi mumkin.


Keltirgan misollarimiz tahlil natijalari gap kengaytiruvchilariga nisbatan quyidagi taʼrif oʻrinli ekanini tasdiqlaydi: «Gapning lisoniy qurilishida umumiy shaxs - son – makon – zamon - modal maʼnolarni oydinlashtiruvchi qism, boshqacha aytganda, markazni kim? nima? qachon? qaerda? soʻroqlariga javob boʻladigan soʻzlar va modal birliklar bilan kengaytiruvchi boʻlaklar gap kengaytiruvchilari deyiladi». Gap kengaytiruvchilari soʻz kengaytiruvchilaridan farqli oʻlaroq soʻzning oʻz maʼnolari bilan emas, balki gapning lisoniy bosqichidagi grammatik maʼnolar bilan uygʻunlik kasb etadi. SHu sababli ular orasidagi munosabat va mavqelarini oydinlashtirish ham alohida eʼtiborni talab etadi.

Hozirgi davr tilshunosligining katta yutuqlari qatorida til va nutq hodisalarini farqlash, idrok etish borasidagi tadqiqotlarni alohida taʼkidlash kerak.

Chunki shunday ishlar sirasida bevosita kuzatishga chiqmagan, ammo imkoniyati bor til qolipi mavjudligi, bu qolip nutqda moddiylik tarzida namoyon bo'lishi ilmiy jihatdan asoslandi. Nutq jarayonida shu qolip so'zlovchining kommunikativ maqsadi tufayli kengaya oladi. Bu kengaytiruvchilarning birikishidan gapning/kim? qachon? qaerda? qancha? qanday? gapning?/ ichki strukturasi yuzaga keladi. Bu tashqi strukturada, ya'ni nutqda: Salim hozir liseyda bitta eng oliy balli o'quvchidir. *Sobir - hozir tumanda eng kuchli bokschilar ustози. Sotvoldi kechqurun ham institutda bir guruh bilag'on bolalar muallimidir* kabi nutqiy hosilalarni vujudga keltiradi. Bu o'rinda biz uchun, eng muhimi, gaplarning ichki qurilishi borligidir. YUqoridagi gap an'anaviy gap bo'laklari tushunchasi ostida: 1)ega 2) payt holi 3) o'rin holi 4) miqdor aniqllovchisi 5) sifat aniqllovchi 6) qaratqich aniqllovchi 7) kesim kabi tahlil etilsa, bu gapning L.Ten'er grammatikasi asosidagi qurilish tasviri shundaydir:



So'z va gap kengaytiruvchilari nuqtai nazaridan yuqorida berilgan gapning qurilishini quyidagicha ko'rsatish mumkin:



YUqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Ten'er tadqiqotida so'z kengaytiruvchilari bevosita kengaytirilgan so'zning o'ziga bog'lanadi va ega-kesim bilan gap qurilishida bir safda turadi.

O'zbek sistem tilshunosligi talqiniga ko'ra so'z kengaytiruvchilari gapning mohiyat qurilishiga o'z bog'lashuv markazlari orqaligina tortiladi. Boshqacha aytganda, so'z o'z ma'no munosabatiga ko'ra birikuvchanlik asosida so'z qabul qilsa, gapning umumiy grammatik mazmuniga asosan boshqa so'zlar bilan bolashuvli munosabat hosil qilish GKqning bosh xususiyati bo'lib hisoblanadi. Xususan, keltirgan gaplar markazida turuvchi kesimlarning lug'aviy asoslari bo'lgan o'qituvchi, o'quvchi, ustoz kabi so'zlarda men, bu yil, maktabda so'zlari

bilan bog'lanish qobiliyati yo'q edi va bu bog'lanish mazkur otlar kesim vazifasida kelgandagina sodir bo'ldi.

Xullas, nutqimizda voqelangan gaplarning tarkibiy qismlari sifatida mavjud bo'lgan bo'laklar so'z kengaytiruvchilari yoki gap kengaytiruvchilari bo'lishi mumkin, Ba'zan ular ham so'z, ham gap kengaytiruvchisi bo'lib, bir-biriga tenglashish, o'tish va aylanish imkoniyatini beradi. Kengaytiruvchilarning bu kabi turlari haqida bir oz bo'lsa-da aniqlikka ergashganimiz sababli, endi ularni an'anaviy to'ldiruvchi va hollarga tadbiquan tekshirish, gap qurilishida to'ldiruvchi va hollarning mavqeni aniqlash masalasiga oydinlik kiritishimiz mumkin.

Ishda boshqa muammolarga nisbatan "so'z kengaytiruvchisi" va "gap kengaytiruvchisi" xususidagi masalaga kengroq to'xtab o'tildi. Chunki bu masala nazariy tomondan o'rganilgan va ayrim darslik va qo'llanmalarda aks etgan bo'lishiga qaramay uning mazmunini chuqur anglamay kelayotgan tilshunoslar ham uchraydi. SHuning uchun mazkur nazariy fikrlarni rivojlantirish va barchaga tushuntirish ham nazariy tilshunoslik oldida turgan sintaksisning dolzarb muammolari sirasiga kiradi.

2 §. O'zbek tilida determinant gap bo'lagi haqida

Gap qurilishida predikativ guruhni mustaqil ravishda determinasiyalovchi ikkinchi darajali xarakterdagi bo'laklarning amal qilishi o'zbek tiliga doir, shuningdek ayrim turkologik adabiyotlarda ham e'tirof etiladi.¹⁰ O'zbek tilshunosligida bu xodisa maxsus tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilgan emas. Bu masalaga ayrim materiallar bag'ishlangan xolos. Mazkur maqolalarda ham determinasiya va determinant bo'laklar yuqorida kuzatilgani kabi turlicha prinsiplar asosida izohlanadi. Bunda, asosan, ikki yo'nalish ko'zga tashlanadi: 1. Determinant bo'laklarni gapning aktual bo'linishi hodisasiga mansub tushuncha sifatida izohlashga intilish; 2. Determinant bo'laklarni gapning grammatik bo'linishi bilan bog'liq kategoriya deb asosga harakat qilish. Birinchi yo'nalish K. Hayitmetovning "Determinantlar gapning aktual bo'linishi nazariyasi aspektida" nomli maqolasida o'z aksini topgan. Bunda u mazkur bo'laklarni gap aktual bo'linishi komponenti sifatida izohlashga intiladi. Uning ko'rsatishicha, gapning aktual bo'linishida mustaqil komponent – ko'pincha, tema funksiyasini

¹⁰ SHvedova N.YU.K sporom o determinanta(xobstoyatel'stvennaya i neobstoyatel'stvennaya determinasiya prostogo predlojeniya).Nauchn dokl.vissh.shkol. Filol'gicheskie nauki. 1973.№5.s.66.

bajarishi ma'lum formaning determinant sifatida yuzaga chiqishi yoki chiqmasligini ta'minlovchi etakchi omil sanaladi. Bunday xulosaga kelishda O. A. Krilovning mazkur masalaga nisbatan bildirgan fikrlaridan kelib chiqmoqchi bo'ladi. Biroq muallif bu prinsipni izchil amalga oshirolmaydi, determinant bo'lakning belgilari xususida fikr yuritir ekan, unga xos bo'lgan boshqa grammatik xususiyatlarni ham asosiy belgilar sirasida qayd etadi. U yozadi: "Determinantlarning: 1) gapning aktual bo'linishida mustaqil komponent – ko'pincha, tema funksiyasini bajarish; 2) to'laligicha gapga taalluqli bo'lib, yaxlit holda gapni kengaytiruvchi ikkinchi darajali bo'lak ekanligi; 3) ko'pincha, prepozitiv xarakterga ega bo'lishi – gap boshida kelishi ularga xos asosiy belgilardir"

Ko'p hollarda uning fikrlari mantiqiy noizchil. CHunonchi, uning ko'rsatishicha, "Hozir u keldi" tipidagi gaplarda "hozir" aktual bo'linishida mustaqil komponent – tema funksiyasini bajarsa-da, determinant hisoblanmaydi: bu gapdagi "hozir" – payt holi, sodda fe'l kesim bilan bitishuv munosabati orqali bog'lanib, relyativ so'z birikmasini hosil qiladi. Bizningcha, K. Hayitmetovning yuqoridagi fikrida oydinlik etishmayotganga o'xshaydi. CHunonchi, aktual bo'linishida mustaqil komponent - tema funksiyasini bajarish ikkinchi darajali bo'lak vazifasidagi ma'lum formaning determinant bo'lishi yoki bo'lmasligini belgilovchi asosiy omil deb tushunilar ekan, keltirilgan gapdagi tema funksiyasini bajarayotgan "hozir" payt holi ham determinant sirasiga kiritilishi mumkin. Agar u determinant sirasiga kiritilmaydigan bo'lsa, unday holda aktual bo'linishida mustaqil komponent – tema funksiyasini bajarish bu xildagi formaning determinant bo'lishi yoki bo'lmasligini belgilovchi etakchi omil bo'la oladi, degan qoida o'z – o'zidan asossiz bo'lib qoladi.

Tadqiqotchining "ikki sostavli gaplarda determinant kam uchraydi" yoki "fe'lli gaplarda deyarli uchramaydi" tarzida bayon etgan fikrlari ham faktlar tabiatiga muvofiq kelmaydi (tadqiqotchi ko'proq bir sostavli otli gaplar doirasida fikr yuritadi). Bulardan tashqari, garchi muallif o'z oldiga determinantlarni mustaqil sintaktik kategoriya sifatida asoslashni maqsad qilib

qo'ygan bo'lsa-da, ba'zan amalda bunga zid bo'lgan pozisiyani nazarda tutadi. Masalan, u "Qo'llarida xurjuncha" tipidagi gaplarda "qo'llarida" bo'lagini determinant deb belgilansa ham, uni "shu konstruksiyada formal jihatdan qo'llanilmagan, lekin tasavvurda mavjud bo'lgan predikativ bo'lak – bor, ushlagan yoki ushlab turibdi bo'laklariga bog'lanadi" deb ko'rsatadi. Demak, tadqiqotchi bu tipdagi bo'laklar ishtirok etgan gaplarni, o'z istagiga qarshi to'liqsiz gap sifatida talqin etadi. Ularning to'liq shakli tiklanganda esa, mazkur bo'laklar "bor", "ushlagan", "ushlab turibdi" kabilar bilan so'z birikmasi hosil qilaveradi. Bunday holda ular odatdagi ikkinchi darajali bo'lak bilan teng bo'lib qoladi. Bunday izohlashda determinant hatto o'zining mustaqil sintaktik kategoriya sifatidagi qimmatini yo'qotishi mumkin¹¹.

Determinantlarni ikkinchi yo'nalishda, ta'kidlanganidek, gapning grammatik bo'linishiga mansub kategoriya sifatida izohlashga harakat qilinadi. Bunday nuqtai nazar tilshunos olim A. A. Ahmedovning maqolalarida aks etgan. Bunda determinant so'z birikmasi hosil qilmaydigan maxsus ikkinchi darajali bo'lak tarzida izohlanadi. Ta'kidlanishicha, "bundagi ikkinchi darajali bo'laklar (determinantlar – M. B.), odatda, gap tarkibida (so'z birikmasi tarkibida emas) mustaqil tarzda qo'llanadi. Ular gapdagi biror so'zni emas, balki butun gapni aniqlash, izohlash (keng ma'noda) uchun xizmat qiladi. Mustaqil holdagi ikkinchi darajali bo'laklarning qo'llanishi faqat yuqoridagi tip gaplargagina (bir sostavli nominativ gaplar nazarda tutilmoqda – M.B) xos emas. Ular ikkala bosh bo'lagi (ega va kesimi) mavjud bo'lgan ikki sostavli gaplarda ham qatnashishi mumkin. Bunda ham hol yoki ob'ekt ma'nolarini anglatuvchi ikkinchi darajali bo'laklarning grammatik formasi gapdagi boshqa bulaklarga bog'liq bo'lmaydi (boshqa bo'laklar tomonidan boshqarilmaydi). Ko'rsatilishicha, "determinantlarning asosiy xususiyati avtonomlik (ular so'z birikmasi tarkibiga kirmaydi), prepozitivlik (ular, odatda, gap boshida keladi) va shu bilan bog'liq ravishda ma'noni ayrib ko'rsatish, ta'kidlashdir".

¹¹ M.Boshmonov.O'zbek tilida monopredikativ gaplar determinasiyasi.Xo'jand.1999.

Olimning ishlarida determinantlar masalasi, ko'pincha, nominativ gaplarning ba'zi tiplarini asoslash bilan bog'liq holda hal etiladi. Ko'rsatilishicha, "hol va ob'ekt ma'nolarini anglatuvchi ikkinchi darajali bo'laklar (determinantlar – M.B) qatnashgan gaplar struktur jihatidan to'liqdir". "Bunday gaplarda tushirilgan bo'lak sifatida taxminan biror fe'l so'zni kiritish zo'rma-zo'rakilik bo'ladi va bu hol ularning o'ziga xos xususiyatini, funksiyasini birmuncha o'zgartirib yuboradi". Olimning ishlarida determinantlar haqiqiy ma'noda mustaqil, ya'ni tasavvurda ham biror bo'lakka bog'lanmaydigan bo'lak deb tushunildi, ularni farqlash grammatik me'zonlar asosida amalga oshiriladi.

Determinasiya va determinantlarni grammatik hodisa sifatida talqin qilishga intilish taniqli tilshunos A. G'ulomov ishlarida ham ko'zga tashlanadi. CHunonchi, uning M. Asqarova bilan hamkorlikda yozgan "Hozirgi o'zbek tili. Sintaksis" darsligida ham determinantlar mustaqil sintaktik kategoriya sifatida ajratiladi va alohida sarlavha ostida beriladi. A. G'ulomovning yozishicha, "keyingi vaqtlarda ikkinchi darajali bo'laklarning o'z funksiyasini bajarishdagi ayrim xususiyatlari asosida ularni ikki tipga ajratish fikri maydonga keldi: gapdagi biror bo'lakni kengaytiruvchi ikkinchi darajali bo'lak (o'z "odatdagi" funksiyasida keladigan to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol) va butun gapni kengaytiruvchi ikkinchi darajali bo'lak (odatdagidan ko'ra boshqacharoq holatda keladigan to'ldiruvchi va hollar) - determinantlar¹².

Determinantlarning ba'zi xususiyatlari: 1. Bularning "odatdagi" bo'lak holatidagi sintaktik aloqasi (hokim komponent bilan bo'lgan sintaktik aloqasi) nisbatan kuchsizlanadi. 2. Funksiyasi nisbatan, bir oz mustaqil tus oladi: gapni butunligicha kengaytiruvchi bo'lib o'qiladi. 3. Ko'pincha, gap boshida, ega – kesimdan avval keladi, shunga tegishli bo'ladi – shuni kengaytiradi. Hokim komponent bilan distant holatda bo'ladi. 4. Determinant vazifasida to'ldiruvchi va hollar (odatda, o'rin va payt hollari) keladi. 5. Uning tobelik holati ifodalanmagan yoki noaniq ifodalangan bo'ladi".

¹² A.G'ulomov.M.Asqarova .Hozirgi O'zbek adabiy tili.Sintaksis. Toshkent.O'qituvchi.1987.

Ta'kidlash lozimki, A. G'ulomning determinantlar haqidagi mavjud fikrlarida ba'zan oydinlik etishmaydiganga o'xshaydi. CHunonchi, u determinantlarni mustaqil grammatik kategoriya sifatida alohida ajralsaa ham, amalda, uni xarakterlovchi grammatik belgilarini ko'rsatishda qat'iy va izchil yo'l tutmaydi, ikkilanadi, determinantlarni odatdagi ikkinchi darajali bo'laklarga yaqinlashtirib harakterlaydi. Uni "sintaktik aloqasi nisbatan kuchsizlangan", "tobelik holati ifodalanmagan yoki noaniq ifodalangan" bo'lak deb hisoblaydi. Bu hol ularni alohida ikkinchi darajali bo'lak emas, balki odatdagi ikkinchi darajali bo'lak yoki uning juz'iy bir ko'rinishi deb xulosa chiqarishga asos bo'lishi mumkin. Vaholanki, determinantlarni alohida kategoriya sifatida belgilash uchun ularni odatdagi tobelik aloqasi mutloqo uzilgan va sifat jihatdan yangi bir aloqada bog'lanadigan element sifatida harakterlash lozim bo'ladi.

Determinatlarni grammatik hodisa sifatida izohlash S.V. Saidahmedovning nemis va o'zbek tillaridagi determinant bo'lakli nominativ gaplarni qiyosiy o'rganishga bag'ishlangan maqolasida ham kuzatiladi. Biroq bunda muallif o'ziga xos pozisiyani tutadi: determinantlar faqat mavjudlik ma'nosini ifoda etuvchi bir sostavli nominativ gaplar uchungina xos bo'luvchi bo'lak sifatida izohlanadi. Bu determinantlarga berilgan ta'rifda ham ochiq ko'rinadi. Determinantlar, uning ko'rsatishicha, gap grammatik asosining (bu o'rinda - mavjudlik ifoda etuvchi nominativ gaplar bosh bo'lagining) "konkretlashuvchisi" sanalsa-da, u bilan hech qanday sintaktik aloqaga kirishmaydi. Bizningcha, bunda sintaktik aloqaning mavjudligini inkor etmay, uning boshqa aloqalardan farq qilishini, maxsusligini e'tirof etish o'rinli hisoblanadi. SHuningdek, "Bir guruh jangchilar tepalik ostida" tipidagi gaplarda "tepalik ostida" bo'lagi ham determinant sifatida qaralaveradi. Bunday ko'rinishlar determinant emas, kelishikli otning kesim vazifasida kelishi tarzida tushunilsa, to'g'ri bo'ladi.

Biroq filologiya fanlari nomzodi, dosent M.Boshmonov tomonidan ilgari surilgan va o'zining tadqiqiy asosiga ega bbo'lgan determinant bo'laklar masalasi hozirgi kunga qadar tilshunoslik darsliklarida rivojlantirilmay kelinayotir. YOki bu

til taraqqiyotiga aks ta'sir etadimi? Bizningcha bunday emas va mazkur sintaktik hodisani talaba va o'quvchilarga etkazish, tushuntirish vaqti keldi deb hisoblaymiz va maktab ta'limiga oid manbalardan ham o'rin olsa foydadan xoli bo'lmaydi, albatta.

3 §. Sodda yig'iq gapdagi bo'laklarning nutqiy voqelanishi

Gap nutqiy hosila sifatida xilma-xil, cheksiz ko'rinishlarga ega. Lekin ular qanchalik turlanmasin, lisoniy sathda umumiylikka ega bo'ladi. Bu umumiylik – gapning eng kichik sintaktik qolipi. Gapning eng kichik sintaktik qolipini aniqlash uchun gap nosintaktik hodisalardan holi qilinadi va fikrni ifodalay oladigan hokim bo'lak – kesim vazifasidagi so'z shakli qoladi. Ayni shu so'z shakli uchun jahon tilshunosligida [WPm] qolipi qabul qilingan.

Gapning umumiy qolipini tiklashda, shakllantirishda barcha atov birliklari uchun umumiy bo'lgan bitta xususiyat – “atash ma'nosi” va unga kesimlik maqomini beruvchi vositalar uchun “kesimlikni shakllantirish” vazifa va ma'nosi olindi. Zero, bu qolipning tarkibiy qismi bo'lgan [W] ning ham [Pm] ning ham o'ziga xos minglab juz'iy xususiyatlari mavjud. Tadqiqotchi M. Abuzalova [W] ni ifodalanish shakllariga ko'ra dastlab ikki turga bo'ladi: 1. Ot, sifat, son, olmosh turkumiga oid so'zlarning [W] vazifasida kelishi. 2. Fe'lning [W] vazifasida kelishi.

Nutq bosqichida esa kesimning ot yoki fe'l bilan ifodalanish xususiyatlari J. Omonturdiev tomonidan o'z vaqtida tadqiq qilingan. U “kesim fe'l bilan ham, ot bilan ham ifodalasa ham predikativlikni ifodalashi, ega haqidagi hukmni bildirishi”ni aytgan. E. Benvenist esa fe'l predikat bilan birga ot predikat mavjudligini e'tirof etadi. T. Akramov lisoniy sathda ot so'z turkumi kesim vazifasida ham kelishini va bunda eganing belgisini bildirishini ta'kidlaydi. “O'zbek tilida ham ot kesim sifat, son, va ravishlardan ifodalanib, egadan anglashilgan shaxs, predmet, hodisaning predmetlik belgisi, sifat-xususiyati, jinsi, holati, son-miqdori, mavjudligi o'rni, materiali va shu kabi xilma-xil belgilarni bildiradi.

Ko'rinib turibdiki, kesimning ot yoki fe'l bilan ifodalanish xususiyatlari nurg bosqichida keng o'rganilgan. Shu sababli quyida gap markazini – kesimni – otli yoki fe'lli kabi turlarga ajratib [WPm] ning [W] qismi nutqiy voqelanishi – ifodalanish shakllari ko'rsatib o'tiladi. 1. Yig'iq gapning nutqiy voqelanishida [W] ning fe'l bilan ifodalanishi: O'qiding. Borgin. Keladi. Kuylasin. Sotib oldim.

3. Yig'iq gapning nutqiy voqelanishida [W] ning ism bilan ifodalanishi:

- a) ot bilan: O'qituvchiman. Shifokordirsiz
- b) sifat bilan: CHiroylidir. Tiriksan. Nodonsan.
- c) ravish bilan : Og'iroyoqman. Hayronman
- d) son bilan: O'ntamiz. Birinchisiz. O'ttizdaman
- e) olmosh bilan: Menman. O'zingsan

SHuningdek, mazkur vazifada sodda so'zlar bilan birga, qo'shma so'zlar, so'z birikamalari , frazemalar ham kela oladi va [W] ning aksidebsiyalarini namoyon qiladi, ularning barchasi xususiylik sifatida bir qator o'ziga xosliklarga ega bo'ladi. Masalan: [W] vazifasida: a) qo'shma so'zlarning kelishi: Ustabuzarmonsan. Olib qochdim. Ishlab chiqardi; b) frazemalarning kelishi: YURagi yorila yozdi. Kapalagi uchib ketdi. Ko'zim tushdi. Ko'zlari to'rt bo'ldi kabi

[Pm] ham tasdiq-inkor, zamon, mayl, shaxs-son ko'rsatkichlarini o'zida mujassamlashtirgan yaxlitlikdir. Bu ko'rsatkich bir butunlik sifatida umumiylik deb olinadigan bo'lsa-da , uning ham o'ziga xos ifodalanish shakllari bor. Bu haqda yuqorida qisman to'xtalindi. Bu shakliy turli-tumanlik faqat nutqda mavjud bo'lib, ularning birortasi ham gapning sintaktik qurilishiga ta'sir etmaydi. M. Abuzalova o'zining nomzodlik ishida [Pm] ni strukturasi ko'ra uch turga bo'ladi: 1. [Pm] ma'nolarining yig'iq ifodalanishi: a) fe'l kesimlarda: YOz. YOzgin. Boray. B) ot kesimlarda: O'qituvchiman. 2. [Pm] ma'nolarining yoyiq ifodalanishi: a) fe'l markazli gaplarda: YOzmasaydingiz; b) ot markazli gaplarda: O'qituvchidirman. 3. [Pm] ma'nolarining tafsiliy(analitik) ifodalanishiga: a) fe'l [W]li gaplarda: O'qisa bo'ladi. Olgan bo'lsangiz; b) Ot [W]li gaplarda: Bahor bo'lsa. Bahor edi kabi misollarni keltiradi.

Ma'lumki, sintaksis 5-sinflarda takrorlash bilan boshlangan bo'lsa, 8-sinf bosqichida bir necha mukammallashgan tarzda o'rganishga qaratiladi. Xususan, dastlab umumiy o'rta ta'lim maktablar uchun nashr qilingan 8-sinf ona tili darsligida, "Fe'l kesim" va "ot kesim"ga quyidagicha ta'rif berilgan: "Kesim qaysi turkum so'zlari bilan ifodalanishiga ko'ra ikki xil: fe'l kesim va ot kesim. Fe'lning turli shakllari orqali ifodalangan kesim fe'l kesim deyiladi. Masalan, sifatdosh bilan ifodalangan kesim: It **hurar** – karvon o'tar kabi.

Fe'ldan boshqa so'z turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, ravish, taqlid so'z) bilan shuningdek, fe'lning harakat nomi shakli bilan ifodalangan kesim ot kesim deyiladi. Masalan, sifat bilan: *Usti yaltiroq, ichi qaltiroq kabi.*

Bunga qo'shimcha ravishda ot kesim, odatda bosh kelishik ba'zan chiqish, jo'nalish, o'rin-payt kelishigi shaklida bo'lib kelishi ham mumkinligi ta'kidlanadi.

Boshlang'ich ta'lim metodikasi talabalari uchun chiqarilgan "O'zbek tili" nomli kitobida ham mualliflar A. Mirzaev, S. Usmonov, I. Rasulovlar xuddi shunday ta'riflarni ta'kidlaydi (1978-y). Hozirgi kunda amla bo'lgan A. Nurmonov va boshqalar hammuallifligidagi darslikka qaytadigan bo'lsak, 2001-yil va 2006-yildagi nashrlarida bir-biridan farqlangan jihatlari mavjud ekanligini sezamiz (bu yanada to'ldirilgan holda nashr qilingan 2011 yil darsligida esa ot kesim deb aytib o'tilgan) 2006 yildagi nashrida Motor **gurillab** mashina oldinga intildi (2011-y). Ushbu gapni fe'l kesim deya misol qilib ko'rsatilgan edi. 2011 yilda esa bu xatoliklarni to'g'rilagan holda ot kesim sifatida e'tirof etilgan. Biroq bu kabi ta'riflar juda ko'plab darslik va qo'llanmalarda berilgan va o'quvchida ikkilanishni vujudga keltirib, yangi savol tug'ilishiga imkon yaratadi. Darslik yoki boshqa manbalarda shu kabi misollar berilib, ularning so'rog'i haqida ma'lumot berilganmi? Bu savolga javob qanday bo'lishi haqida hech ham o'ylab ko'rganmisiz? Kabilar shular jumlasidandir.

Namuna sifatida quyidagi ma'lumotlarni aytib o'tish kerak: et, bo'l, ber, de fe'llarini olishimiz mumkin. Bu kabi fe'llar fe'l bo'lmagan so'zlarga qo'shibil murakkab ot kesimni hosil qiladi. **Bayon qil** degan qo'shma fe'l yuzaga

kelgan bo'lsa, siz-u biz bunga shubhasiz nima qil? - degan so'roq berishimiz tabiiy.

CHunki: bayon – ot; qil – fe'l. Uning tarkibi quyidagilar bo'ladi: Ot + fe'l qo'shma fe'l tarzda shakllangan bo'ladi. SHuni aytib o'tish kerakki, agarda bu kabi fe'llarga shu tarzda savol beradigan bo'lsak, **ot kesim** emas, balki **fe'l kesim** bo'lib qoladi. Bundan xulosa shuki, ot kesimning so'roqlari mavjud emasligi, aniqroq aytganda, ular quyidagicha so'roqlarga javob bo'ladi degan konkret izoh berilishini talab etadi. Buni xatto darslik mualliflari ham e'tibordan chetda qoldirgan va shu kabi so'zlarga so'roq qanday berilishi aytib o'tilmagan. Bunday savollarga javob topilishi bilan yo'nalishi aniq bo'lmagan savollar topila beradi. Bu esa o'zbek tili sintaktik sathi misoli ummon bo'lib ko'plab muammolar mavjudligini, ularni ham o'z echimini topish zarurati vujudga kelganligini ko'rsatadi. Aslida esa mazkur masalaning echimi ham nazariy tilshunoslikda mavjud bo'lib, bulardagi etakchi ma'noustunligiga ko'ra o't-kesim va fe'l kesim sifatida e'tirof etilgan. Aslida ularning qaysi so'z turkumi bilan ifodalanishi emas, ularning gapda markaz sifatidagi uyushtiruvchilik roli muhim ekanligini ham alohida ta'kidlash zarur.

Ko'rinadiki, o'zbek tilda shakliy ifodalanishiga ko'ra [Pm] o'ta rang-barang : u nol morfemada boshlab, morfemalarning yig'iq, yoyiq ko'rinishlari hamda bog'lamalar bilan ifodalanishi mumkin. SHuning uchun bu qolip tarkibidagi qismlar orasida uning muayyan nutqiy voqelanishlari hissasi hamma vaqt ham bir xil bo'lavermaydi. Ba'zi hollarda bir ma'no bo'rttirilsa, uning ikkinchi ma'nosi zaiflashadi. Hatto kesimlik kategoriyasi tarkibidagi birorta ma'noning tamoman yo'qolishi natijasida uning, ya'ni kesimlik katagoriyasining o'zi ham butunlay yo'qoladi yoki boshqa mohiyat kasb etadi.

4 §. Gap bo'laklarining amaliy va noamaliy mavqei xususida

So'nggi yillarda tilshunoslikning barcha sathlarida bo'lgani kabi, sintaktik sath hodisalarning ham mazmun tomoni (semantikasi)ga e'tibor kuchaydi, mazmuniy

sintaksis (semantik sintaksis) mustaqil yo'nalish maqomida yuzaga keladi. Ayniqsa, shu hodisa bilan aloqador sistem-struktur tahlil tadbili (metodi)ga murojaat qilinishi, til sintaktik qurilishining mazmuniy mazmuniy – shakliy nomutanosibligi (semantik – sintaktik asimmetriyasi) hamda sintaktik qurilmalar paradigmatikasi va sintagmatikasi kabi masalarga qo'l urilishi o'zbek tili nazariy sintaksisi uchun katta voqea bo'ldi. Sintaksis va uning hodisalariga yangicha yondashish ilmiy tadqiqotning bir qator boshqa qirralarini ham ochib berdi. Ana shulardan biri gap bo'laklarini sistem yo'sinda o'rganish masalasidir.

“Funksiya, pozisiya va gap bo'laklari noamaliy mavqei” gap bo'lagi tushunchasini sistem-struktur nuqtai nazrdan yoritadi. Bunga ko'ra, gap bo'laklari ifoda va mazmun sathlariga ega bo'lgan ramz (belgi, ishora) sifatida qaralib, uning amaliy va mazmuniy, unsur - elementlari hamda ularning o'zaro munosabatlari o'rganiladi.

Ma'lumki, gap bo'laklari ob'ektiv borliqning inson tafakkuri orqali in'ikos etiluvchi element qismlarini moddiylashtiruvchi hodisalar hisoblanib, gap sintaktik kamronida muhim funksional birlik vazifasini bajaradi.

Tilning shakl va mazmun qurilishiga daxldor barcha tushunchalar “hayoti”da har xil o'zgarishlar mutttasil sodir bo'lib turadi. Bu narsa gap bo'laklari uchun ham tegishlidir. Gap bo'laklari bilan bog'liq bunday xususiyatlardan biri ularning noamaliy mavqe (nofunksional pozisiya) ga ega bo'lishidir.

Gap bo'laklarining noamaliy mavqei gapning sintaktik va semantik qurilishida yuz beruvchi nomutanosiblik(assimetriya) tufayli vujudga kelgan. Noamaliy mavqe masalasi gapning ham shakliy, ham mazmuniy sathlari bilan aloqador bo'laganligi uchun ham sintaksis nazariyasi uchun ahamiyatlidir. Darhaqiqat, shakliy va mazmuniy tomonlar baravar hisobga olingandagina, sintaktik nazariya haqiqiy nazariya bo'la oladi.

Sistem qurilma sifatida gap bo'lagida ifoda plani (sintaksisi), mazmun plani (semantikasi) va gap bo'lagining muayyan nutq vaziyatida oladigan ma'nosi (pragmatikasi) hamda ularning o'zaro aloqasi bir butunlikda amal qiladi. Ular bir-biridan farqlanadi, ma'lum darajada mustaqil ham bo'ladi. Muhimi, bu uch

tushuncha bir-biri bilan u yoki bu tarzda bog'langan bo'lib, gap bo'lagining mazmun tomonini o'rganishda ular baqamti hisobga olinadi.

Gap bo'lagining noamaliy mavqei pozisiya, funksiya, gap bo'lagi o'rtasidagi notenglik, nomutanosiblik tufayli vujudga keladi.

Sintaktik mavqe. Gap qurilishi mavqe, funksiya va gap bo'lagi tushunchalari asosida tekshiriladi. Til hodisalarini o'rganishga struktur (formal) yondashish bu tushunchalarni lisoniy jihatdan to'liq baholay olmaydi. Chunki gap haqidagi har qanday ta'limotning asosini muayyan mazmuniy va tarkibiy qamrov (semantik va sintaktik stuktura) tashkil etadi. Shunday ekan, gapning elementar-oddiy sintaktik birliklari hisoblangan mavqe, funksiya va gap bo'lagi tushunchalari tahlilida ham mazmuniy yoki tarkibiy qamrovning yolg'iz o'zini hisobga olish bir yoqlamalikka olib keladi. Shuning uchun ham avvalo, gap bo'laklarini belgilash, ularni gap qamrovida to'g'ri va obektiv tayin etishda sintaktik semantikadan - sintaktik mavqe (sintaktik pozisiya) tushunchasidan kelib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Sintaktik mavqe tushunchasi gap sistem – struktur qurilishining uzviy unsur – elementi sanalib, mazkur qurilishning shakliy (formal) belgilari yig'indisidan iborat. Ammo mavqe tushunchasi ko'pchilik tilshunoslar tomonidan ba'zan elementlarning gap qamrovidagi joylashishi tarzida ham tushuniladi. Biroq gap bo'laklari mavqeini belgilashda elementlarning gap qamrovidagi o'rinishi bilan cheklanish etarli emas, balki bunda gap bo'laklarining shakliy belgilari yig'indisi mavqe deb atalar ekan, gap bo'laklarini to'g'ri tayin etishda ana shu mavqe tushunchasidan kelib chiqish hodisaning mohiyatini to'la aks ettiradi. Gap bo'lagining mazmuni esa uning muayyan mavqei (shakliy tushunchasi) orqali reallashadi. Chunki har qanday gap elementar sintaktik va semantik birliklar (semalar va arxisemalar)dan iborat yaxlit qamrovli qurilma (pozision struktura)dir. Gap tarkibining ana shu elementar sintaktik va semantik birliklarini o'rganish gap bo'laklari haqidagi an'anaviy ta'limotning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Gap bo'laklarining muayyan shakl va muayyan mazmun jabhalari birligi – majmuasi ekanligi gap bo'laklari haqidagi ta'limotning asosini tashkil etadi.

Gap bo'laklari sintaktik qurilishning mavqelari munosabati asosida, yaxlit gap nuqtai nazaridan baholanmog'i kerak. Chunki intaktik birlik (gap bo'lagi)ning shakliy tashkil qiluvchi so'z shakli sintaktik qurilishdan tashqarida sintaktik munosabatlarni ifodalash imkoniyatiga ega bo'lmaydi.

Sistem-struktur tahlil metodi nuqtai nazardan har qanday mavqeli qamrov (pozision struktura) bir qancha sintaktik mavqelarning muayyan sistemasi birligidan iboratdir. Alohida olingan har bir mavqe ham o'z navbatida, ma'lum sintaktik shakl (sintaktik forma) va ma'lum semantik ifoda birlillaridan tashkil topgan sistema bo'lib, faqat o'zidan yuqori mavqeli qamrov tarkibida sintaktik munosabat ifodalay oladi. Bu hol esa ularning gap bo'laklari vazifasida kelishiga imkoniyat yaratadi va bu imkoniyat ular (gap bo'laklari)ni sintaktik qamrovning konstruktiv – funksional elementi darajasiga ko'taradi. Masalan, *Ayol fartugiga qo'lini arta-arta ichkariga kirib ketdi* (X. To'xtaboev) gapi yaxlit mavqeli qamrovdur. Bu qamrov o'zidan kichik sintaktik mavqelar bilan tashqi stuktural munosabat (ierarxiyali munosabat)ga kirishgan: ega (ayol), kesim(kirib ketdi), o'rin holi (ichkariga), ravish holi (fartugiga qo'lini arta-arta) singari “ichki” mavqelar “tashqi” – talqin mavqe qamroviga uning elementlari sifatida kirgan (ierarxiyali – silsilali mavqe).

Xullas, gap bo'laklari mavqei sistema tarkibida amal tarkibida amal qiluvchi elementlarning shakliy belgilari bo'lib, ular o'ziga xos yana boshqa sistemani tashkil etadi.

Tilshunos M. Boshmonovning ta'kidlashicha, gap bo'lagining shakl(formasi) sistem qurilma hisoblanib u ikki unsur-elementdan substansional shakl (so'z forma) va funksional shakl (pozisiya)dan iborat bo'ladi. Bu shakliy unsur-elementlar sintagmatik va paradigmatic munosabatlarda amal qiladi. Substansional shakl ichki material asos, funksional shakl esa mazkur material asosning tashqi qobig'i sifatida namoyon bo'ladi.

Noamaliy mavqeli gap bo'laklari ham huddi funksional gap bo'laklariga o'xshab muayyan shakl (forma) ga ega bo'lib, sistem qurilma maqomini oladi. Mazkur sistem qurilma biri boshqasisiz amal qilmaydigan ikki shakliy element –

substansional shakl (so'z shakli) va funksional shakl (mavqe)dan iborat bo'ladi. SHuningdek, bu shakliy unsur-elementlar ichki (sintagmatik va paradigmatic) va tashqi (ierarxiyal) struktur munosabatlarda bog'lanadi. Mavqe uchun asos bo'lgan funksional shakl so'z shaklining tashqi qobig'i sifatida namoyon bo'ladi va muayyan sistem qurilmani hosil qiladi. Mavqe sistem qurilma sifatida unsur-elementlar yig'indisidan tashkil topgan bo'lib, mazkur unsur – elementlar ham ichki struktur munosabatlarga kirishadi. Bu munosabatlarda mavqe funksiya darajasiga ko'tariladi. Natijada gap bo'laklarining noamaliy mavqei amaliy(funksional) mavqe sifatida qaralaveradi. Albatta, noamaliy mavqening funksionallashuvi – funksional mavqe darajasiga ko'tarilish nisbiy xarakter kasb etadi. Bu hodisalarning nomutanosibligiga asoslanadi. Xuddi ana shu nomutanosiblik noamaliy mavqeni qonuniy xolatga aylantiradi.

Mavqe gap bo'laklarining sintaktik shaklini, funksiya esa ularning mazmunini tashkil etadi. Turli sathga xos bu ikki parametr bitta sintaktik birlik(gap bo'lagi) doirasida tutashadi. Bundan tashqari, mavqe u yoki bu funksional ma'noning material qobig'i hukmida gap bo'laklarini ajratishda shakliy asos maqomini oladi.

Funksiya tushunchasi haqida. Funksiya sintaksisning markaziy muammosi hisoblanadi. Amerika tilshunosi L. Blumfild tilning shakl va ma'nodan tashqari yana funksiya deb ataluvchi uchinchi aspektga ham ega ekanligini e'tirof etadi.

Funksiya til birliklarining ma'nosi bilan bog'liq tushuncha. Ayni o'rinda, funksiya va ma'no bir xil hodisalar ham emas. O. Espersen grammatik funksiyani alohida tushuncha sifatida fahmlagan bo'lsa-da, uni ma'no bilan qorishtirib yuboradi. U grammatik hodisalarni ichki va tashqi yo'nalishlar asosida o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Tashqi yo'nalishning shakldan ma'no yoki funksiyaga (SH - M); ichki yo'nalishning esa, aksincha, ma'no yoki funksiyadan shaklga qarab borishi aytiladi (M –SH).

SHakliy ma'no sistem ma'noli ichki xususiyatdir. U ekstralingvistik hodisalar bilan munosabatga kirishadi. Funksiya tushunchasi yana boshqa tipdagi sistemaga taalluqli bo'ladi. Muhimi, shundaki, har qanday shaklning ma'nosi uning funksiyasi bilan birgalikda mavjuddir. Biroq o'z funksiyasiga ega

bo'lmagan u yoki bu shakl ba'zan ma'noga ega bo'la oladi (masalan, noamaliy mavqeli bo'laklar). Bunday shakllar butunlik tarkibining ichki sistem ma'nosi hukmida qaraladi.

Ishda funksiyaning uch xil darajalanishi va ular bilan bog'liq ma'no munosabatlari haqida atroflicha ma'lumotlar berilgan.

Noamaliy mavqeli gap bo'lagining funksionallashuvi "funksiya ichidagi funksiya" tarzida ro'yobga chiqadi. SHu bois bunday funksionallashuv biror-bir mikrotizim (mikrokonstruksiya) ichida gapning sintaktik qamroviga nisbatan noamaliy xarakter kasb etadi. Ularning funksionallashuvi ichki sintaktik munosabatlar orqali amalga oshadi.

Noamaliy mavqeli gap bo'laklar ifodalangan "cema" va "arxicemalar" funksional bo'laklarning "sema" va "arxisemalar" bilan umumiylikka ega: funksional bo'laklar semantikasida ifodalangan "sema" va "arxisemalar" noamaliy bo'laklar semantikasida ham bemalol ifodalanaverishi mumkin. Qisqasi, noamaliy mavqeli bo'lak ham muayyan bir semantika ifodasi uchun moslashgan bo'ladi. Aks holda, bu birliklar mikrotizim tarkibida ayni bir sintaktik funksiyani egallay olmas edi. SHu bilan bir qatorda, noamaliy mavqeli funksiya gap bo'lagining asosiy (amaliy) funksiyasi tazyiqi ostida bo'lib, undan o'zida ifodalanishi mumkin bo'lgan "arxisema"ning qandayligiga ko'ra farqlanadi.

Noamaliy mavqeli gap bo'laklari ma'nosi ham sistem qurilma harakterida bo'ladi. Unda sintagmatik va paradigmatic munosabatlarda bog'lanuvchi substonsional va funksional ma'no unsur-elementlari mavjud bo'ladi. Funksiya uchun asos bo'lgan funksional ma'no so'z ma'nosining tashqi qobig'i sifatida namoyon bo'ladi va muayyan sistemani hosil qiladi.

Xullas, funksiya sistem qurilma sifatida unsur-elementlar yig'indisidan tashkil topgan bo'lib, mazkur unsur- elementlar ham ichki (sintagmatik va paradigmatic) va tashqi (ierarxiyali) struktur munosabatlarga kirishadi. Bu munosabatlarda noamaliy funksiya amaliy funksiya darajasiga ko'tariladi. Natijada gap bo'laklarining noamaliy funksiyasi amaliy funksiya sifatida qaralaveradi. Albatta, noamaliy funksiyaning amaliy funksiya darajasiga ko'tarilishi nisbiy

xarakter kasb etadi. Bu hodisalarning hammasi funksiya, mavqe va gap bo'laklari munosabatlarining nomutanosibligiga asoslanadi. Boshqacha qilib aytganda, funksiya, mavqe, va gap bo'lagi tushunchalari o'zaro teng va mutanosib emas, balki ular o'rtasida muayyan nomutanosiblik mavjuddir. Sintaktik qurilmadagi ma'lum bir to'liq sintaktik mavqegina funksiyaginareng va muvofiq kelishi hamda to'liq mavqe vamuayyan funksiyagina gap bo'lagiga teng kelishi mumkin. Boshqa barcha hollarda ular o'rtasida nomutanosiblik noamaliy mavqeli gap bo'laklarining "grajdanlik" huquqini belgilaydi.

Gap bo'laklari noamaliy mavqei ham funksional mavqeli gap bo'laklari singari tashqi tomondan ierarxiyali munosabatga kirishadi. Bunday munosabatlarda ular bir funksional mavqeli murakkab gap bo'lagi - mikrotizimning tarkibiy qismi sifatida, o'z navbatida, mikrotizimning tarkibiy qismi sifatida, o'z navbatida, mikrotizimning o'zi esa yirik sintaktik birlik – gapning tarkibiy qismi sifatida qatnashadi; noamaliy mavqeli bo'laklarning integrali (sistemi), mikrotizim va boshqa funksional bo'laklar yig'indisi natijasida yuzaga keluvchi sintaktik butunlik - gapning integrali tarzda yuzaga chiqadi.

“Gap bo'laklari noamaliy mavqeining vujudga kelish omillari” tarzida nomlanuvchi ikkinchi bobda gap qurilishining funksional-amaliy va taksonomik-ashyoviy birliklari, tashqi va ichki sintaktik munosabatlar, ustama predikativlik, nomutanosiblik tushunchasining sintagmatik hamda paradigmatic planlari, ularning voqe bo'lish omillari o'rganilgan.

Gap qurilishi va uning funksional hamda taksonomik birliklari. Gap sintaktik qamrovi odatda, taksonomik-ashyoviy va funksional-amaliy deb ataluvchi birliklardan tashkil topadi. Taksonomik-ashyoviy va funksional-amaliy qismlar o'zaro aloqadagi har xil hodisalardir. Odatdagi, gap bo'laklari gap tarkibining funksional birliklarning material qismi sifatidaxizmat qiladi. Taksonomik-ashyoviy birlik vazifasi biror-bir leksik-grammatik kategoriya bilan xoslanmaydi, shuning uchun bunday vazifani mustail ma'noli so'zlar ham, yordamchi so'zlar ham bajaraveradi. Qisqasi, V.B. Kasevich ta'biri bilan aytganda, taksonomik birlik gap strukturasiining morfemadan yirik har qanday qismidir.

Gap strukturasiining taksonimik va funksional birliklari munosabatida mutanosiblikka (simmetriyaga) nisbatan nomutanosiblik (assimertiya) kuchli bo'ladi. Gap strukturasiining bu ikki birligi munosabatidagi nomutanosiblik sintagmatik xarakter kasb etadi. Semantik- sintaktik jihati nomutanosib gaplarda ashyoviy va funksional birliklar qamrovi farq qiladi - ashyoviy birliklar miqdori funksional birliklar miqdoridan ko'p bo'ladi. Bu farq ikki xil bo'lishi mumkin: birinchi holda qurilma tarkibida grammatik ma'no ifoda etuvchi yordamchi so'z mavjud bo'ladi. Masalan, *Qalam ukam uchun olindi* gapida uchta funksional birlik (ega, vositali to'ldiruvchi, kesim) va to'rtta ashyoviy birlik (qalam, ukam, uchun, olindi) mavjud. Bu o'rinda ashyoviy birlik vazifasini ham mustaqil ma'noli (qalam, ukam, olindi) ham yordamchi so'z (uchun)lar bajarmoqda; ikkinchi holda sintaktik qurilma tarkibining mustaqil ma'noli so'zlari ashyoviy birlik vazifasidahan ishlatiladi. Masalan, *SHerni enggan polvon emas, jahlini yutgan polvon* (Maqol) gapida etti ashyoviy birlik, to'rt funksional birlik mavjud. Bunda sherni va enggan, jahlini va yutgan so'zlari ashyoviy birliklar xarakterida ega mavqeidagi sherni engan va jahlini yutgan kabi funksional birliklar doirasida birikkan.

Ashyoviy va funksional birliklar miqdorining nomushtarakligiga asoslangan nomutanosiblik natijasida gap bo'laklarining noamaliy mavqei vujudga keladi: ma'no va grammatik qiyofasi gapning ma'lum bir bo'lagini taqozo etuvchi komponent (leksik birlik) o'zi mavjud bo'lgan ayni shu qurilmada gapning bosh bo'lagi mavqegini mustaqil ravishda egallay olmaydi; uzviy (konstruktiv) birlik tarkibida tobe qism vazifasini bajaruvchi sintaktik birlik, G. A. Zolotova ta'бири bilan aytganda, III funksiyadagi sintaktik birlik maqomida bo'ladi. Bu hol, ayniqsa, tarkibida ustama predikasiyali qurilmalar mavjud bo'lgan sodda gaplarda ko'p uchraydi.

Ustama predikasiyani moddiylashtirishda fe'lining funksional shakllari - sifatdosh, ravishdosh va harakat nomi, shuningdek, fe'ning shart mayli formasi bilan shakllangan oborotlar, bor, yo'q kabi modal so'zlar bilan shakllangan qurilmalar xizmat qiladi. Ustama predikasiyali qurilmalar sodda gaplarda

murakkab gap bo'lagi vazifasini bajaradi va ular tarkibida noamaliy mavqeli gap bo'laklari ishtirok etadi.

Semantik- sintaktik jihati mutanosib birliklarda ashyoviy birlik bilan funksional birlik neytralizasiyaga uchraydi – bir pozisiyada tutashadi – teng keladi; qismlar ham ashyoviy, ham funksional birlik bo'la oladi. Masalan, *Bugun jamoa klubida yangi film ko'rsatildi* qurilmasida ularning funksional birliklari (payt holi, qaratqichli aniqlovchili, o'rin holi, sifatlovchi aniqlovchi, ega va kesim -6 ta) leksik-ashyoviy birliklar (bugun, jamoa, klubida, yangi, film, ko'rsatildi – 6 ta) bilan miqdoran teng.

Funksional va ashyoviy birlik tushunchalari til sintaktik qurilishining bosh va markaziy masalasi – sintaktik aloqa va sintaktik munosabat tushunchalari bilan aloqador bo'ladi.

Gap bo'laklari ham sintaktik aloqa va sintaktik munosabatlar asosida bog'lanadi. Shu bois ular gap bo'laklarining amaliy va noamaliy mavqelarini belgilashda ham muhim rol o'ynaydi. ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol kabi bo'laklarga ajratilishida va bu sintaktik kategoriyalarning o'zaro birikuvida, qo'shma gap funksional qismlarining belgilanishida va ularning o'zaro birikuvida sintaktik aloqa va sintaktik munosabatlar bosh rol o'ynaydi.

Noamaliy mavqeni vujudga keltiruvchi dastlabki omil murakkab gap bo'lakli qurilmalar (birikmalar) hisoblanadi.

Har qanday fan kabi, tilshunoslikning ham bosh maqsadi til hodisalarining shakli va mazmuni o'rtasidagi munosabat qonuniyatlarini izlash va izohlashdan iborat. Til birliklarining shakli va mazmuni o'rtasidagi munosabat esa murakkabdir. Bunday murakkab hodisalarni o'rganishda A. K. Fyodrov sintaktik qonuniyatlariga tayangan holda undan foydalangan va yaxshi natijalarga erishgan. Mazmuniy sintaksis qonuniyatlariga muvofiq, murakkab bo'laklarni komponent tahlil metodi asosida ko'zdan kechirsak, bu bo'laklarning shakli va ma'no o'rtasida sintagmatik nomutanosiblikning amal qilishiga guvoh bo'lamiz. Ana shu nomutanosiblik tufayli bu xil bo'lakli mikroqurilmalar, birinchidan,

o'zidan yirik butunlik tarkibida silsilali – ierarxiyali munosabatga kirishsa, ikkinchidan, ular o'z ichida predikat asosida birlashgan ma'lum tipdagi sintaktik strukturani tashkil qiladi. Mazkur blokda muayyan mazmuniy munosabatlar ifodalangan bo'ladi va u, yuqorida ko'rib o'tganimizdek, gap tarkibida bir butun holda funksiyalashadi. Bu esa predikatli blokni tashkil etgan semantik aktant larning mavqelari ichki sintaktik munosabatiga ko'ra noamaliy, ularning mustaqil mavqega ega bo'lishi ayni shu mikrotizmning o'zi uchun xos ekanligini ko'rsatadi.

Ustama predikasiya tushunchasi haqida. Gapni gap qilib turgan eng asosiy belgi predikativlik tushunchasidir. Predikativlik – predikat va uning semantik aktant (mazmuniy unsur-element) larning ob'ektiv borliqqa bo'lgan munosabatini ifodalovchi shakllar sistemasi hisoblanadi. Professor A. Nurmonov qayd etganidek, sistema nazriyasi nuqtai nazaridan, predikativlik o'zaro munosabatlarda bo'lgan tasdiq-inkorlik, zamon, shaxs, modallik kabi element – hodisalar majmuasi ularning birligidir.

Ayni shu elementlardan birortasining qatnashmasligi sistemaga putur etkazadi, predikativlikdan chiqaradi. Predikat yuqoridagi belgilarga ega bo'lgan taqdida, predikasiya ifodalanadi. Bu hol bir qarashda polipredikatli sodda gaplardagi predikativlikni inkor etayotgandek tuyuladi. Ammo sodda gaplardagi ustama predikasiya ham ma'lum asosga egadir. To'g'ri bunday gaplarda bir predikat ikkinchi predikatning semantik aaktanti (argumenti) mavqeida keladi. Natijada predikatlarning o'ziga xos darajalanishi yuz beradi. Predikatlar darajalanishida aktant pozisiyasida kelgan predikat ustama predikat, ustama predikant tipdagi aktantga ega bo'lgan predikat asosiy predikat hisoblanadi. SHunday qilib, polipredikativ qurilmalarda ustama predikat asosiy predikatning ustiga quriladi. Bu esa gapning mazmun tuzilishini murakkablashtiradi. Natijada sintaktik jihatdan sodda, semantik jihatdan murakkablashgan sodda gaplar yuzaga keladi. Bunday gaplarda ikki yoki undan ortiq pozisiya singishadi, ya'ni qorishadi. Pozisiyalar miqdori, shubhasiz, gapdagi predikasiyalar miqdoriga teng bo'ladi.

Ko'p predikatli (nopredikativ) sodda gaplardagi ustama predikativlik mustaqil gaplarning transformasiyasi natijasida shakllanadi. Muayyan gap transformasiya qilinar ekan, ustama predikasiya transformasiyadan oldingi mustaqil gapda asosiy predikasiya vazifasini bajaradi. Lisoniy transformasiyaga ko'ra, mustaqil gapdagi shaxsli fe'l-kesimning shaxssiz formaga o'zgarishi tufayli mustaqil gapda berilgan axborot (informasiya)ning ma'lum qismi yo'qoladi, implisit ravishda (yashirin holat)da ifodalanadi. Ammo mustaqil gapdagi prozisiya transformasiya asosida shakllangan mazkur predikasiyali qurilmalarda to'laligicha saqlanadi. Masalan, ... *adabiyotni kasbga aylantirib olgan yozuvchi olmaga tushgan qurtdan farq qilmaydi.* (A.Qahhor) gapida ikkita pozisiya ifodalangan: 1. YOzuvchi adabiyotni kasbga aylantirib oldi 2. YOzuvchi olmaga tushgan qurtdan farq qilmaydi. Har ikkala hosila gap ma'lum bir pozisiyani ifodalab to'liq predikasiyaga egadir (kasbga aylantirib oldi, farq qilmaydi). Birinchi gapni quyidagicha transformasiya qilish mumkin: Adabiyotni kasbga aylantirib olgan yozuvchi.

Demak, polipropozitiv semantik struktura polipredikativ sodda gaplarda ifodalanar ekan, albatta ayni qurilmada ifodalangan pozisiya asosiy pozisiyag nisbatan yordamchi hisoblanadi. Tabiiyki, bunday hollarda polipredikat bilan predikasiya o'rtasida nomutanosiblik vujudga keladi. Bu hol ayni predikasiyalarda ifodalangan informasiyaning noto'g'ri tushunilishiga yoki so'zlovchi(yozuvchi) ko'zda tutgan darajada tushunilmasligiga, ularning gap kommunikasiyasi uchun yaroqsiz bo'lib qolishiga olib kelmaydi. Professor N. Mahmudov juda to'g'ri qayd etilganidek, "til mazmun uzv (komponent)laridan ayrimlarining implisit ifodalana olish imkoniyatining mavjudligi" ustama predikasiyaning asosiy predikasiya bilan bab-baravar "yashay olishini" ta'min etadi.

Qisqasi, predikativlik bilan munosabatdoshlikda uning tarkibiy qismi hisoblangan tasdiq- inkor, zamon, shaxs, modallik kabi unsur – elementlardan ba'zilarining implisit ifodaga ega bo'lishi predikativlik sistemasiga hech qanday putur etkazmaydi, predikativlikdan chiqarmaydi, balki aksincha, uni boyitadi.

Noamaliy mavqeni vujudga keltiruvchi sintaktik qurilmalar.

Polipredikativ sodda gaplardagi poliprozotiv semantik struktura ham gap bo'laklari noamaliy mavqeini vujudga keltiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Ustama predikatsiyali turli xil qurilmalar bilan murakkablashgan sodda gaplar tarkibidagi gap bo'laklari noamaliy mavqe (GBNM)ni quyidagicha ko'rinishlarga parchalash mumkin; 1. Sifatdosh oborotlar bilan murakkablashgan sodda gaplar tarkibida GBNM: *YUzida bilanar-bilinmas chechak o'rni qolgan ... jurnalist shoirga bir qarab qo'ydi* (S.Anorboev). 2. Ravishdosh oborotlar bilan murakkablashgan sodda gaplar tarkibida GBNM: *Bir kuni tongda oppoq sochingiz tarab, Dilingiz shogirdlik vaqtini qo'msaydi* (E. Vohidov). 3. Harakat nomli qurilmalar bilan murakkablashgan sodda gaplar tarkibida GBNM: *Nigoraning alamli boqishi, iztirob chekishi meni o'ylantirib qo'ydi* (M.Qoriev). 4. SHart mayli shakli bilan murakkablashgan sodda gaplar tarkibida GBNM: *Odam bir yo'la ham muhabbatidan, ham do'stidan ayrilib qolsa, og'ir bo'larkan* (O'. Hoshimov). 5, Bor, yo'q kabi modal so'zlar bilan shakllangan qurilmalar tarkibida GBNM: *Bir uy xotin shundoq qobil o'g'li, shunday mehribon kelini bor kampirga havas bilan boqishadi.* (O'. Hoshimov) 6. Belgi ifodalovchi so'zlar bilan shakllangan qurilmalar tarkibida GBNM: *Lekin yurtga mashhur shoiridan ko'ra , Bilingki, yuz chandon siz shoirroqsiz.* (E. Vohidov) Olmoshlashish jarayoni(pronominalizasiya)ni boshdan kechirayotgan so'zlar ishtirok etgan qurilmalar tarkibida GBNM: *Temur tig'i etmagan joyini, Qalam bilan oldi Alisher*(A. Oripov). 8. Frazologizasiyalashish jarayonidagi butunliklar tarkibida GBNM: *Og'ir qizning oshig'i olchi* (Maqol). 9. Ko'makchili qurilmalar tarkibida GBNM: *Muallim kitob yoniga tiz cho'kkancha afsun o'qirdi* (Isfandiyor).

Nomutanosiblik tushunchasi haqida. Sintaktik nomutanosiblik moya-prinsipi tazyiqi ostida gap bo'laklari murakkablashadi – mikrotizim xarakterini kasb etadi. Bir mikrotizim doirasida har xil gap bo'laklari moamaliy mavqega ega bo'ladi. Ularning kichik mavqei (mikropozitsiyasi) mustaqil shakliy va mazmuniy

qiymatga ega bo'lmaydi. SHu bois mikrotizim tarkibidagi "gap bo'laklari" mavqei noamaliy xarakter kasb etadi.

Sintaktik hodisalar shakli va mazmuni mutanosibligi ikki xil bo'ladi: 1. Paradigmatik nomutanosiblik; 2. Sintagmatik nomutanosiblik.

Paradigmatik nomutanosiblik gap bo'lalarining funksional mavqei bilan bog'lanadi. Xarakterli tomoni shundaki, gap tarkibining funksional mavqega ega bo'lgan bo'laklaridan biri ayni o'rinda ikki va undan ortiq sintaksemaga xos xususiyatlarni ifoda etadi. Masalan, *U maktabidan gapirdi* gapining ikki xil anglash mumkin: a) subekt harakter-holatining ma'lum makonda voqe bo'lishi; b) subekt harakat-holatining obekti. Gap mazmuning bunday ikki xil tasavvur etilishiga "maktabidan" so'z shaklining polifunksional – polisemik sintaktik mavqei sabab bo'ladi (... maktabidan gapirmoq: 1-maktabidan – makon, 2-maktabidan – obekt) Ayni shu hol gap mazmun va ifoda jabhalarining nomutanosibliginii vujudga keltiradi.

Paradigmatik nomutanosiblik sintaktik birliklarning ko'Pma'noliligi, omonimligi, sinonimligi sngari xususiyatlar bilann xarakterlanadi.

Gap mazmun va ifoda jabhasi nomutanosibligining ikkinchisi – sintagmatik nomutanosiblik gap bo'lagining noamaliy mavei bilan aloqador bo'ladi. Sintagmatik nomutanosiblikda gap tarkibidagi so'zlar miqdori bilan gap bo'laklari miqdori muvofiq kelmaydi. Masalan, Ko'p o'qigan ko'p biladi tipidagi jumllalarda gapning mazmun va ifoda planiga xos nomutanosiblik mavjud. Gap mazmun planida shu mazmunni hosil qiluvchi ma'noviy birliklar (subъekt, uning atributi, predikat, uning atributi) miqdori to'rtta bo'lishiga qaramay, uning ifoda jabhasi ikki funksional qismdan iborat: ega va kesim. Gap mazmun qamrovidagi subekt atributi va predikat atributi tushunchalarini moddiylashtiruvchi leksik birliklar mavjud bo'lsa-da, (ko'p: ko'p o'qigan; Ko'p biladi), ular (leksik birliklar) mustaqil funksional mavqega ega emas: subъektning atributi, predikatning atributi ma'nolarini bildiruvchi leksik birliklar eganing va kesimning sintaktik mavqelariga tortilgan – gap mazmun va ifoda jabhasining sintagmatik xarakterdagi

nomutanosibligi vujudga kelgan. Demak, sintagmatik mutanosiblik bu taksonomik-ashyoviy va funksional-amaliy birliklar o'rtasidagi nomutanosiblikdir.

Sintagmatik nomutanosiblik prinsipi tazyiqi ostida gap bo'laklari murakkablashadi, mikrotizim xarakterini kasb etadi. Bir mikrotizim doirasida har xil gap bo'laklari noamaliy tarzda mavjud bo'ladi. Ularning mikromavqei mustaqil shakliy va mazmuniy qiymatga ega bo'lmaydi. SHu bois mikrotizim tarkibidagi "gap bo'laklari" mavqei noamaliy xarakter kasb etadi. Bu imkoniyat sintaktik qurilmalardagi mazmuniy – tarkibiy nomutanosiblikni qonuniyatga aylantiradi.

Noamaliy mavqeli gap bo'laklari mavjud bo'lgan jumalarda nomutanosiblikning ikki xil turi sinkret-sinxron tarzda ifodalanadi. Birinchidan, murakkab fikr sodda shakl (sodda gap)da ifodalansa, ikkinchidan, bir necha gap bo'laklari noamaliy tarzda amaliy mavqedagi bir bo'lak vazifasida birlashadi. Ayni o'rinda bu xususiyat lisoniy tejamlilik(lingvistil ekonomiya) uchun ham xosdir: sodda gapning o'zi undagi mazmunga nisbatan, **"tejalgan"** shakl hisoblansa, uning ichki qismlari ichki qismlariga nisbatan, "tejalgan" shakl hisoblanadi(ierarxiyali – silsilali tejamlilik).

Lisoniy tejamlilik va lisoniy ortiqchalik prinsiplari. Sodda gaplar qurilishiga xos tejamlilik gap qurilishining sintaktik planiga xos noamaliy mavqeini yuzaga keltiruvchi omillardan biri hisoblanadi. CHunki unda bir necha gap bo'laklari bir mavqe qamrovida birlashadi. Masalan, *eski turmush bag'rin o'ygan, Yo'qsil dardi uchun kuygan, Zulm taxtiga o'tlar kuygan Mard yigitning bilagidir* (H. Olimjon) gapida o'n beshta taksonimik-ashyoviy birlik atigi ikkita gap bo'lagi tarkibiga tortilgan. Mazkur gap birikmali egalar (*Eski turmush bag'rin o'ygan, Yo'qsil dardi uchun kuygan, Zulm taxtiga o'tlar qo'ygan*) hamda kesim (Mard yigitning bilagidir)ga ajraladi, xolos. ega va kesimlar tarkibini funksional bo'laklarga ajratishmumkin emas – gapning mazmun tomoniga putur etadi. Bundan seziladiki, gap mazmunini ma'lum kommunikativ maqsadda to'g'ri anglashda gap bo'laklari noamaliy mavqeining sezilarli ahamiyati bor.

Lisoniy tejamlilik tamoyilining qarama-qarshi qutbi lisoniy **“ortiqchalik”** bo’lib sodda gaplardagi mazmuniy – tarkibiy nomuvofiqlik ana shu moya asosida ham yuzaga keladi. Ortiqchalik tamoyilining mahiyatiga ko’ra, sodda mazmun murakkab shakl orqali ifodalanadi. Albatta, bu holat munosabatida mutassil sodir bo’lib turuvchi nomuvofiqliklarni yuzaga keltiradi.

Sodda gaplar qamrovida “ortiqchalik”ning amal qilishi gap bo’laklari noamaliy mavqeining yuzaga kelishini shart qilib qo’yadi. Qisqasi, lisoniy ortiqchalik ham gap qurilishining sintaktik planiga xos noamaliy mavqelarni yuzaga keltiruvchi omil hisoblanadi.

Ayrim tilshunoslar sodda gaplar qamrovidagi mazmuniy-tarkibiy nomutanosiblikning ortiqchalik tamoyili asosida ham yuzaga kelishi mumkinligini inkor etib, uni faqat qo’shma gap qamrovi uchun xos deb biladilar.

Biz tanishgan faktik materiallar tabiati esa sodda gaplar qamrovida ham ortiqchalik tamoyilining bemalol mavjudligini tasdiqlaydi. Sodda gaplar qamroviga xos ortiqchalikning vujudga kelishi ma’lum qonuniyatlarga asoslanadi. Bunga ko’proq, odatda, proniminal(olmashlashayotgan) birliklar pozitsiyasi bilan bog’liq hodisalar sabab bo’ladi. Bunda “er”, “joy”, “narsa”, “odam”, “kishi”, “tomon”, “taraf” kabi otlar olmashlashish jarayonini boshdan kechirayotgan bo’ladi. Bunday birlik (so’zlar) aniq semantik qiymatga ega bo’lmaydi. SHu sababli sodda gap tarkibidagi bunday leksemalarning, hatto mazkur leksemali ayrim birikmalarning gap qamrovidagi shakli “ortiqcha” bo’ladi. Masalan, *Boshqalarning baxt- saodatlarini ko’rolmagan hasadchi kishi doimo qayg’u-alam ostida bo’ladi.* Mazkur gapda pronominal so’z “kishi” leksemasi orqali ifodalangan. Xuddi ana shu pronominalizasiyaga uchragan “kishi“ leksemasining sodda gap qamrovidagi shakliy ifodasi “ortiqcha”dir.

Lisoniy ortiqchalik masalasi ham til fanlari doirasida talabalarga tushuntirib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Umumiy xulosa

Tilshunoslik fani eng qadimgi fanlardan biri bo'lib, unda, ya'ni uning deyarli barcha sathlarida hali echimini to'la topmagan nazariy masalalar mavjud hamda shuning uchun bo'lsa kerak, echimga ega bo'lmagan mavzular bo'yicha turli muammoli savollar hali ham uchrab turadi. Ona tili fanining bir emas bir necha sathlarida bunday masalalar ko'tarilishi mumkin bo'lgani kabi yuqori sathlaridan biri bo'lgan sintaksisda ham kuzatiladi. Bu yuqorida ta'kidlab o'tilgan fikrlar asnosida yana bir karra oydinlashdi. Ko'rinadiki, tilshunosligimizda bir nechta so'zlarning bir so'roq ostida muayyan gap bo'lagi bo'lib kelishi uni tahlil qilishdagi soddalashtirishga misol bo'lish bilan birga uning tarkiban ikkinchi darajali predikasiyaga nisbatan valentlik imkoniyatlarini ochish nazariy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Shuningdek, yuqoridagi kabi **-gan** sifatli o'rni bilan ifodalangan aniqlovchilar ham umumiy tarzda bir gap bo'lagi – aniqlovchi bo'lish bilan bir qatorda uning tarkibiy qismlari bevosita asosiy gap markaziga tobelanmagan holda bo'lakning bo'lagi sifatida talqin etiladi. Ushbu masalaga prinsipial yondashish oqibatida aniqlovchining gap konstruktiv bo'lagi emasligi to'ldiruvchi gap bo'lagi va hollarning ham gap qurilishidagi mavqei masalasida yangicha talqin qilinishini yuzaga keltiradi. Bunga ko'ra ular valentlik nazariyasiga muvofiq “so'z kengaytiruvchilari” va “gap kengaytiruvchilari” sifatida tahlil etiladi. Bunday tahlil etishning asosiy omillari sifatida esa professor N.Mahmudovning “Funksional va nofunktsional to'ldiruvchilar haqida”, M.Boshmonovning “Boshqaruvga yondosh hodisa” va boshqa maqolalari turtki bo'lganligini ham alohida ta'kidlash joiz. SHularga asosan gap bo'laklari qatoriga “Determinant bo'laklar”, gap bo'laklarining amaliy(funksional) va noamaliy(nofunksional) mavqei masalalari kirib keldi va bu masalani nazariy tomondan asoslash hamda o'quvchi-talabalar ongida shakllantirish bunday ilmiy talqinlarning rivojlanishiga, tobora ommalashib borishiga keng yo'l ochadi. Bunday nazariy talqinlarning ayrim jihatlarigaina ish davomida qisman yoritilishiga harakat qilingan bo'lsa-da, uni yanada rivojlantirish, fanimiz taraqqiyoti, ayniqsa, nazariy sistem tilshunosligi uchun qo'shilgan muhim hissa bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Abdullaev A., Abdullaev H. Hozirgi o'zbek adabiy tilida gap bo'laklarining ifodalanishiga doir//Buxarskiy ped. in-t. Nauchn, - teoretich, konf. 12-ya. 1967. Materialы XII nauch.-teoretich.konf, Tez, dokl. - T.; 1967. - S. 57-58.
2. Abdullaev H. Gap bo'laklarining strukturasi ko'ra tasnifi masalasiga doir//O'zbek tili va adabiyoti, 1974, - №3. - B.30-34.
3. Abdurahmonov X., SHodmonov E. O'zbek tili. - T.: O'qituvchi 1982. - 158 b.
4. Abdurahmonov G'. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - T.: O'qituvchi, 1979. - 204 b.
5. Abuzalova M. O'zbek tilida sodda gapning eng kichik qurilish qolipi va uning nutqda voqelanishi. Filol. fanlari nomzodi ilm. dar. olish uchun taqdim etilgan dis. avtoreferati-T.;1994.- B. 21.

6. Akbarov S, O'zbek tilida sintaktik sinonimlar masalasi// O'zbek tili va adabiyoti, - 1961, - № 6. - B. 52-56.
7. Asqarova M. Abdullaev I, Omilxonova M, O'zbek tili darsligi, 7-8 sinf, - T.: O'qituvchi, - 1988. - 231 b.
8. Ahmedov A. Nominativ gaplarning alohida bir turi//O'zbek tili va adabiyoti, - 1978. - № 2, - B, 40-43.
9. Ahmedova S. Ba'zi sintaktik sinonimlarning strukturasi haqida//Sovet maktabi, - 1968. - № 10, - B. 30-32.
10. Boltaboeva X. Ravishdosh tipida ajratilgan bo'laklar//O'zbek tili va adabiyoti, - 1968. - № 6. - B. 21-23.
11. Borovkov A.K. Ma'rufov 3. va boshqalar. O'zbek tili grammatikasi. II qism. Sintaksis. Etti yillik o'rta maktablarning 6-7 sinflari uchun darslik.- T., O'zpeddavnashr, - 1952, .
12. Boshmonov M. O'zbek tilida determinant bo'laklar//O'zbek tili va adabiyoti, - 1982, - № 2, - B. 41-43.
13. Karimjonova V. Leksemalarning boshqaruv bog'lanishida yuza ifoda etuvchi klassemalari//O'zbek tili va adabiyoti, - 1983. - № 3.-B. 19-23.
14. Komilova H. O'zbek tilidagi to'ldiruvchilar haqida//O'z.SSR FA Til va adabiyot in-ti asarlari. - T.: - 1949. - 153-155 b.
15. Mahmudov N. O'zbek tilidagi sodda gaplarda semantik-sintaktik assimetriya. - T.: O'qituvchi, - 1984. - 148 b.
16. Mahmudov N. Funktsional va nofunktsional to'ldiruvchilar haqida//O'zbek tili va adabiyoti, - 1981. - № 1. - .
17. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi (Sintaksis). - T, O'qituvchi, - 1995, - 232 b,
18. Mirzaev M., Usmonov S., Rasulov I. O'zbek tili. - T.: O'qituvchi, - 1978. - 256 b.
19. Ne'matov H. Maktabda til sathlarini o'zaro bog'lab o'rganish. - T.; Kitob, - 1992. - 28 b.
20. Ne'matov H. G', Qayta qurish strategiyasi va o'zbek sinxronik tilshunosligining vazifalari//O'zbek tili va adabiyoti, 1987. - № 3, - B. 27-
21. Nurmonov A. Gap haqida sintaktik nazariyalar (Maxs.kurs).- T.: TDPI, - 1988, - 100 b.
22. Nurmonov A. va boshqalar. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. - T.: Fan, - 1992. - 294 b.
23. Nurmonov A, Tilni sistemali o'rganish va sintaksisning ayrim munozarali masalalari//O'zbek tili va adabiyoti, -1988, - № 6, - B. 22-26.
24. Omonturdiyev J. Gap bo'laklari tipologiyasi. - T.; O'qituvchi, - 1989. - 210 b.
25. Pulatov A. Maktabda holni o'rganish. T.O'qituvchi. 1978-66.
26. Po'latov A. Vositasiz to'ldiruvchi//Sovet maktabi, - 1965,- № 4, - B, 41-
27. Rasulov R. O'zbek tilidagi holat fe'llari va ularning obligator valentliklari. - T: Fan, - 1989, - 131b,
28. Rasulov R. So'z valentligi va sintaktik aloqa//O'zbek tili va adabiyoti, - 1992, - № 5/6. - B. 36-40.

- 29.. Rahmatullaev SH. O'zbek tilida fe'l frazemalarning bog'lashuvi. T. Universitet. - 1992. - 126 b.
30. Sayfullaev A. R. Gapning uchinchi darajali bo'laklari//Sovet maktabi, - 1967. - № 1. - B. 34-36,119
- 31.Sayfullaeva R. Abuzalova M. Gapning eng kichik qurilish qoliplari haqida//O'zbek tili va adabiyoti - 1991. - № 4,-B,42-46,
32. Tursunov U. Muxtorov J. Rahmatullaev SH. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Oliy o'quv yurti filologiya fakul'tetlari talabalari uchun darslik, -T,: O'zbekiston. - 1992. 399 b
- 33.To'ychiboev B. Hozirgi o'zbek adabiy tilida sintaktik sinonimika, - T,; Fan, - 1988, -85 b.
34. Ubaeva F. Hozirgi o'zbek adabiy tilida hol kategoriyasi.-T. Fan. - 1971. - 145 b,
35. SHahobiddinova SH. Grammatik ma'no talqini xususida: Filol. fanlari nomzodi, avtoref. - Samarqand, - 1993. - 24 b.
- 36/37. O'zbek tili grammatikasi. - T. Fan. 1975. 1976, T. 1- va 2- tom. 610 b. 560 b.
- 38.O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 tomlik. - M. Rus tili nashriyoti – 1981.
- 39.Ko'chqortoev I. So'z ma'nosi va uning valentligi. - T. Fan. -- 1977. - 167 b.
- 40.G'oziev H. O'zbek tili grammatikasi. - II qism.- Sintaksis. - T.: O'zdavnashr. - 1938. - 41 b,
- 41.G'oyibov S. Fe'l leksik ma'nosining sintaktik birikuvchanlikka ta'siri//O'zbek tili va adabiyoti, - 1983. - № 3.- B. 28-31,
- 42.G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili, Sintaksis. – T. O'qituvchi. - 1987. - 256 b.
- 43.G'ulomov A. O'zbek tili sintaksisining ba'zi masalalari/ O'zbek tili va adabiyoti, - 1968. - № 2,- B. 9-13.
- 44.G'ulomov A., Ne'matov H. Ona tilidan ta'lim mazmunini yangilashning asosiy yo'nalishlari, - T.; O'qituvchi. - 1993. - 122 b,
45. Hayitmetov K. Determinantlar gapning aktual bo'linish nazariyasi aspektida//O'zbek tili va adabiyoti, - 1981. - № 2,- B. 27 -31.
46. Xojiev A. Fe'llarning o'timli o'timsizligi haqida// O'zbek tili va adabiyoti- 1970. - № 1,- B. 39-40.

